

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MOLIYAVIY MENEJMENT FAKULTETI

“KASBIY TA'LIM” KAFEDRASI

Yangiboyeva Dilnoza Oqbutayevna

**“Mehnat haqidan soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi” mavzusini
mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar ishlab chiqish va qo'llash metodikasi
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

«HIMOYAGA RUXSAT ETILDI»

«Kasbiy ta'lim» kafedrası mudiri

_____i.f.d.,prof. A.Omonov

«__»_____2013 y.

**Bitiruvchi: 5140900 -“Kasb ta'lim”(Buxgalteriya hisobi va Audit)
ta'lim yo'nalishi 4- kurs talabasi Yangiboyeva Dilnoza Oqbutayevna**

«__»_____2013 y.

Ilmiy rahbar: _____i.f.n., dots. S.Buzrukxonov

«__»_____2013 y.

Ilmiy maslahatchi : _____p.f.n., dots. R.Qodirov

«__»_____2013 y.

TOSHKENT - 2013

Reja

Kirish.....	3
I bob. “Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi” mavzusini mustaqil o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari	
1.1. Mehnat va ish haqini hisobga olish vazifalari, xo‘jalik yurituvchi sub’ektning shaxsiy tarkibi va turkumlanishi.....	6
1.2. “Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi” mavzusini o‘rganishni o‘zisha xos xususiyatlari.....	12
II bob. Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi mavzusini mustaqil o‘rganishda samarali metodlardan foydalanish	
2.1. Mavzu bo‘yicha mustaqil ishlarni tashkil etish va ularning o‘ziga xos xususiyatlari.....	24
2.2. Mavzu bo‘yicha dars o‘tishda topshiriqlar ishlab chiqish va qo‘llashda samarali metodlardan foydalanish zaruriyati	35
III bob. “Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi” mavzusini mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar ishlab chiqarish va qo‘llash metodikasi va uni takomillashtirish	
3.1. “Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi” mavzusini o‘rganishda mustaqil ishlarni axborot texnologiyalari vositasida tayyorlashni takomillashtirish masalalari.....	50
3.2. “Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi” mavzusini mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar ishlab chiqish va qo‘llashni takomillashtirish.....	54
Xulosa.....	59
Foydalanilgan adabiyotgan.....	62

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga o'tish bilan iqtisodiy ta'lim tarbiyaning roli nihoyatda ortdi. Shuning uchun ham yurtimizda ta'lim tizimini isloh qilish, barkamol avlodni tarbiyalash, ularda iqtisodiy tafakkurni shakllantirishda iqtisodiy ta'lim tarbiya masalalariga alohida diqqat-e'tibor qaratildi va qaratilmoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, o'tgan yilda ham «Ta'lim-tarbiya sohasining yaxlit, uzluksiz tizimini shakllantirish va mustahkamlash, jumladan, umumiy o'rta ta'limdan boshlab o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda yuksak bilimli va malakali kasb tayyorgarligiga ega bo'lgan avlodni tarbiyalash jarayonini takomillashtirish ishlari izchil davom ettirildi»².

Mustaqil O'zbekistonimizda islohatlar tobora ko'p amalga oshirilmoqda. Hayotimizning barcha javxalarda, jumladan yosh avlod ta'lim-tarbiyasida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'lmoqda.

Respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy kamolatni yosh avlodning sa'i harakatlariga bog'liq ekanligi endi hech kimga sir emas. O'sib kelayotgan yosh avlod va ularning kelajakda qanday kasb egallashlariga qarab, respublikamiz kelajagini tasavvur qilsa bo'ladi.

Kelajakda erishishimiz lozim bo'lgan buyuk maqsadlarga etishish uchun eng avvalo yuqori malakali, zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlar tayyorlashimiz kerak.

Shu bilan birga Iqtisodiy fanlarda dars berishda alohida e'tibor qaratilmoqda. Ko'ngildagidek bilimdon mutaxassis kadrlar tayyorlash, inson salohiyatini yuzaga chiqarish esa har jihatdan o'qituvchilarga ularning bilimdonlik bilan o'qitish jarayonini tahlili qilishi va dars berishiga bog'liq.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012-yilning asosiy yakunlari va 2013-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. Halq so'zi // 19 yanvar 2013 yil, 2-bet.

Shu nuqtai nazardan bitiruv malakaviy ishim, ya'ni "Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi" dars o'tishda mustaqil ish va topshiriqlar ishlab chiqish mavzusi bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Mavzuni o'rganishda, ulardagi tushunchalarni chuqur o'zlashtirishda mustaqil ishlar va topshiriqlar tayyorlash katta ahamiyatga ega ekanligi, hamda mavzu bo'yicha mustaqil ish metodini tadqiq qilingan maxsus adabiyotlarni kamligi, yo'qligini hisobga olib, mazkur bitiruv malakaviy ishni yoritishni, bajarishni maqsad qilib qo'ydik.

Bitiruv malakaviy ishning maqsad "Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi" dars o'tishda mustaqil ish qo'llash, ularni o'tkazishdagi muammolarni o'rganishdir.

Qo'yilgan maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- mavzuni o'rganishda mustaqil ish, dars o'tish tizimida tutgan o'rnini aniqlash;
- mavzu bo'yicha dars o'tishda samarali metodlardan foydalanish va ularni dars davomida qo'llash mustaqil ish tayyorlashdir;
- mavzu bo'yicha dars o'tishda mustaqil ish tayyorlashdagi muammolarni o'rganish;
- mustaqil ish qo'llashni takomillashtirish tadqiq etish mustaqil ishlarni mavzu xususiyatiga ko'ra tanlash mezonlarini aniqlash;
- Mavzu bo'yicha dars o'tishda mustaqil ishlar va topshiriqlar tayyorlash metodikasini qo'llashni takomillashtirish.

Yuqoridagi maqsad va vazifalarni o'z oldimizga qo'ygan holda tadqiq olib bordik.

Bitiruv malakaviy ishining tadqiqot ob'ekti va predmeti: Ishning tadqiqot ob'ekti uzluksiz ta'limning o'rta maxsus ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan "Buxgalteriya hisobi" fanining «Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi» mavzusi hisoblanadi. Predmeti esa dars o'tish uchun pedagogik texnologiyalarni tanlash, mavzuga moslashtirish va uni o'rganish uchun topshiriqlar ishlab chiqish va ularni qo'llashdir.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy- amaliy ahamiyati:

1. Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi mavzusini nazariy va amaliy, huquqiy asoslarini hozirgi mavjud o'quv va ilmiy adabiyotlari, me'yoriy hujjatlarni o'rganish asosida mazkur mavzu nihoyatda kam o'rganilganligi, iqtisodiy yo'nalishdagi kasb-hunar kollejlarda «Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi» mavzusining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi.

2. Ta'lim jaryonida mavzuni o'rganishda samarali metodlarni o'quv jarayonini tashkil etishdagi o'rni, roli, mavzu bo'yicha dars o'tishda ularni tanlash mezonlari ko'rsatildi.

3. Mavzu bo'yicha dars o'tishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar mazmuni, ularni mavzuga moslashtirish masalalari o'rganildi. Ulardan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chikildi.

Bitiruv malakaviy ishida olib borilgan tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan xulosa va takliflardan kasb-hunar kollejlarda mazkur mavzuni o'rganishda foydalanish mumkin.

Qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, bitiruv malakaviy ishini tarkibiy tuzilishini quyidagicha belgilandi:

Ish kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Birinchi bobda Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi mavzusini ilmiy nazariy asoslari o'rganilgan. Ikkinchi bob mavzusini mustaqil o'rganishda samarali metodlardan foydalanish texnologiyalar va mavzuni o'rganishda ulardan foydalanishni tadqiq etishga, uchinchi bob esa mavzusini mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar ishlab chiqarish va qo'llash metodikasi va uni takomillashtirish.

I BOB. “MEHNAT VA ISH HAQIDA SOLIQLAR VA USHLANMALAR HISOBI” MAVZUSINI MUSTAQIL O‘RGANISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Mehnat va ish haqini hisobga olish vazifalari, xo‘jalik yurituvchi sub’ektning shaxsiy tarkibi va turkumlanishi

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning tub negizida aholini ijtimoiy himoya qilish, qilingan mehnatiga yarasha taqdirlash hamda turmush farovonligini oshirish masalasi yotadi. Ushbu masalalarni hal etish borasida buxgalteriya hisobi sohasida ham ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda, xususan inson mehnat qilar ekan, uning mehnati hisobini to‘g‘ri tashkil etish va yuritish, to‘lovlarni hamda ajratmalarni o‘z vaqtida olib borishni taqozo etadi.

Hozirgi paytda ish haqini tashkil qilishni qayta qurishning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- 1) xodimlarning juda keng bo‘lgan doirasiga tegishliligi;
- 2) birinchi marta ish haqini tashkil qilishning barcha qismlarini, ya’ni ta’rif tartibi, haq to‘lash shakllari va mukofotlash tartibi, mehnatni muvofiqlashtirish, qo‘shimcha haq to‘lash mexanizmi, mehnatga haq to‘lash fondlarini hosil qilish va foydalanish kabi elementlar kompleksini o‘z ichiga oladi;
- 3) mehnat jamoasining roli, ayniqsa, oshiriladi, mehnatning umumiy natijasiga har bir xizmatchi hissasini baholash hamda unga haq to‘lash va mukofotlash miqdorlarini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan masalalarni echishdagi ko‘pchilik to‘siqlar bartaraf qilinadi;

Mehnat va ish haqiga tegishli reja topshiriqlarini hisobga olish va nazorat qilishda buxgalteriya hisobi muhim rol o‘ynaydi. Chunki uning yordamida xo‘jalik yurituvchi sub’ektning barcha bo‘limlarida mehnat ko‘rsatkichlarining bajarilishi va uning o‘zgarishi haqida iqtisodiy asoslangan axborotlar yaratiladi.

Mehnatkashlarning mehnat unumdorligini oshirish va xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ishini yaxshilashga bo‘lgan moddiy qiziqishlarini yanada oshirish maqsadida ularga to‘lanadigan ish haqida xo‘jalik yurituvchi sub’ekt ishining umumiy

yakunini yaxshilash uchun to'lanadigan qismini oshirishga keng yo'l ochib berilmoqda. Shuning uchun sanoat xo'jalik yurituvchi sub'ektlaridagi buxgalteriya hisobining eng muhim vazifalaridan biri mehnat o'lchovi va unga haq to'lash ustidan nazorat qilib turishdir.¹

U ikkiga bo'linadi:

- 1) ro'yxatdagi shaxsiy tarkib;
- 2) ro'yxatdan tashqari shaxsiy tarkib.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt shaxsiy tarkibining asosiy qismini ro'yxatdagi shaxsiy tarkib tashkil qilib, unga doimiy va vaqtinchalik ishga besh yildan kam bo'lmagan davrga qabul qilingan va mehnat daftarchalari ochiladigan xodimlar hamda xo'jalik yurituvchi sub'ekt asosiy faoliyati bo'yicha bir yildan kam bo'lmagan muddatga vaqtinchalik ishga qabul qilingan va mehnat daftarchalari ochilmaydigan xodimlar kiradi.

Ro'yxatdan tashqari shaxsiy tarkib xodimlari xo'jalik yurituvchi sub'ektga, odatda, uning asosiy faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan vaqtinchalik, mavsumli ishlarni va topshiriqlarni bajarish uchun taklif qilingan bo'lib, ular ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ekt shtatiga kirmaydi va ularga kadrlar bo'limida mehnat daftarchasi yuritilmaydi. Ba'zi paytlarda ro'yxatdan tashqari shaxsiy tarkibga tegishli ish haqi fondlari hisobidan ro'yxatdagi shaxsiy tarkibga qarashli ishchi va xizmatchilar tomonidan bajarilgan ishlarga haq to'lash mumkin. Lekin bunday ishlar ularning o'z ish vazifalari bilan bog'liq bo'lmasligi kerak.¹

Sanoat ishlab chiqarishida ishlaydigan xodimlarga sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda bevosita yoki bilvosita qatnashuvchi xodimlar kiradi. Bu xodimlar quyidagi guruhlardan iborat:

- 1) asosiy ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar;
- 2) xizmat qiluvchi va yordamchi ishlab chiqarishda band bo'lgan xodimlar hamda asosiy ishlab chiqarish tsexlaridagi asbob-uskunalarini sozlash va tuzatish ishlarini bajaruvchi ishchilar;

¹ Yusupov M.B, Soliyev B.K. "Moliyaviy hisob" maruzalar qismi. A.D. 2008. 81-82 b.

¹ Ochilov I.K., Qurbanboyev J.I. "Moliyaviy hisob" Toshkent 2007 . 110 b.

- 3) ko'makchi tsexlarda ishlaydigan ishchilar;
- 4) xo'jalik yurituvchi sub'ektga qarashli tajribahonalar, ilmiy tekshirish muassasalarida ishlaydigan xodimlar;
- 5) zavod boshqarmasining xodimlari hamda xo'jalik yurituvchi sub'ekt ishlab chiqarish faoliyatiga xizmat qiladigan konstruktorlik byurosi va shu kabilarning xodimlari;

6) xo'jalik yurituvchi sub'ektdagi barcha qorovulchilik xodimlari:

Sanoatga taalluqsiz xodimlarga uy-joy va kommunal xo'jalik xodimlari, ko'makchi qishloq xo'jalik xo'jalik yurituvchi sub'ektlari, bolalar bog'chasi, o'quv yurtlari va kurslari, tibbiy va madaniy-maishiy muassasalarning xodimlari hamda imorat va inshootni kapital tuzatish ishlari bilan band bo'lgan xodimlar kiradi.

Sanoat ishlab chiqarishida band bo'lgan xodimlar xo'jalikda qanday vazifalarni bajarayotganliklariga qarab olti guruhga bo'linadi:

- a) ishchilar; b) muhandis-texnik xodimlar; v) xizmatchilar; g) kichik xizmatchi xodimlar; d) o'quvchilar; e) qorovul va o't o'chiruvchi xodimlar.

1. Ishchilarga mahsulot ishlab chiqarishda bevosita qatnashuvchi va ishlab chiqarishni normal olib borishni tashkil qiluvchi shaxslar kiradi.

Ishchilar mahsulot ishlab chiqarishda qatnashishlariga qarab asosiy ishlab chiqaruvchi va yordamchi ishlab chiqaruvchi ishchilarga bo'linadi. Asosiy ishlab chiqaruvchi ishchilar deb ushbu xo'jalik yurituvchi sub'ektda ishlab chiqarilayotgan mahsulotni yaratishda bevosita qatnashuvchi ishchilarga aytiladi.

Yordamchi ishlab chiqaruvchi ishchilarga ish joylari uchun ishlab chiqarish xizmatlarini bajaruvchi ishchilar, ya'ni mehnat vositalari va ishlab chiqarish binolarini joriy tartibda tuzatib, tozalab turish, mahsulotni ortish, tushirish bilan band bo'lgan ishchilar kiradi.

2. Muhandis-texnik xodimlarga xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati ustidan texnikaviy ishlab chiqarish va iqtisodiy jihatdan rahbarlik qiluvchi xodimlar kiradi.

3. Xizmatchilarga xo'jalik yurituvchi sub'ektlardagi idora ishlarini va ayrim ma'muriy-xo'jalik ishlarini bajaruvchi xodimlar kiradi.

4. Kichik xizmatchi xodimlarga ishlab chiqarishga taalluqli bo'lmagan binolarni, hovlilarni tozalovchi shaxslar, xat tashuvchilar kiradi.

5. O'quvchilar xo'jalik yurituvchi sub'ekt ishlab chiqarish jarayonini yakka-yakka yoki brigada usuli bilan o'rganayotgan shaxslardir.

6. Qorovul va o't o'chiruvchi xodimlarga harbiylashtirilgan, qurollangan, vaxtyorlik va o't o'chirishda xizmat qiladigan ishchilar kiradi.

Sanoat ishlab chiqarishida ishlaydigan xodimlar kasblari, malakalari va ish stajlari bo'yicha ham guruxlanadi.

Ish haqi ikki turga bo'linadi:

Asosiy ish haqi va qo'shimcha ish haqi.

Asosiy ish haqi deb ishchi va xizmatchilarga ishlangan ish vaqti yoki bajarilgan ishlariga va mehnatkashlarning aybisiz ish to'xtab qolgan vaqtga to'lanadigan ish haqiga aytiladi. Asosiy ish haqiga tarif bo'yicha haq to'lash, ishbay ishlarining narxi bo'yicha haq to'lash, lavozimlar, oylik maoshi va ularning ustiga mukofot tarzida to'lanadigan qo'shimcha haq ish vaqtidan tashqari ishlar uchun to'lanadigan qo'shimcha haq, brigadirlarga to'lanadigan qo'shimcha haq, ishning normal sharoitidan chetga chiqish paytlaridla bajarilgan ishlar uchun qo'shimcha haq to'lash kiradi.

Qo'shimcha ish haqi deb ishchi va xizmatchilarga ishlamagan vaqt uchun beriladigan to'lovlarga aytiladi. Qo'shimcha ish haqi mehnat to'g'risidagi konunchilikda ko'zda tutilgan bo'lib, ularga ta'til vaqtida to'lanadigan haq, davlat va jamoa topshiriqlarini bajarish vaqtiga to'lanadigan haq, onalarning bolalarni emizish davri uchun to'lanadigan haq va boshqalar kiradi.

Mehnatga to'lanadigan haqni to'g'ri belgilash maqsadida tarif tizimi qo'llaniladi.

Tarif tizimi uch qismdan iborat:

1) tarif stavkasi; 2) tarif setkasi; 3) tarif-malaka bildirgichi.

Tarif stavkasi deb vaqt birligi (soat, kun, oy) uchun to'lanadigan ish haqiga aytiladi. Ishchilarning tarif stavkasi ularning malakasi, mehnat sharoiti, haq to'lash shakli hamda sanoat tarmoqlari bo'yicha markazlashtirilgan ravishda differentsiatsiya qilingan bo'ladi.

Ishchilarning tarif stavkasi 1- razryadli ishchilar uchun kun yoki soat bilan, qolgan razryadli ishchilar uchun esa tegishli koeffitsient bilan belgilanadi. Boshqa yuqori razryaddagi ishchilarning ish haqini aniqlash uchun ularga belgilangan koeffitsientni 1- razryad ishchisining tarif stavkasiga ko'paytirish kerak.

Bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning ichida ishning og'ir-engilligiga qarab 1- razryadli ishchi uchun har xil ish haki belgilangan bo'lishi mumkin.

Tarif setkasi mehnatga haq to'lashda malakani hisobga olish, ya'ni har xil malakali ishchilarning ish haqida bo'lgan tafovutni belgilashda qo'llaniladi. Tarif setkasida razryadlar ro'yxati va har bir razryadga tegishli koeffitsient keltirilgan bo'ladi. Tarif koeffitsienta ma'lum razryadning stavkasi 1- razryadning stavkasidan ortiqqligini ko'rsatadi. 1- razryadga 1 ga teng bo'lgan koeffitsient belgilanadi, qolgan razryadlarniki esa mehnatning malakasiga qarab oshib boradi. Sanoat xo'jalik yurituvchi sub'ektlarida hozir asosan 6 razryadli tarif setkasi qo'llaniladi.

Tarif-malaka bildirgichi deb sanoatning ma'lum tarmog'ida bajariladigan ishlar turi va shu ishlarni bajarishda ishchilarning oldiga qo'yiladigan talablar ro'yxatiga aytiladi. U barcha tarif tuzimining asosi bo'lib sanoat tarmoklari bo'yicha tuziladi. Sanoatda asosan ish haqining ikki tarifi qo'llanilib, bular ishbay va vaqtbay shakllaridir.

Ishbay shaklida ishchilarning ish haqi ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori va sifatiga qarab belgilanadi. Ish haqining bu shakli sanoatda asosiy hisoblanib, u mehnat unumdorligini oshirish imkonini beradi, chunki u har bir ishchining shaxsiy va ijtimoiy manfaatini hisobga olishni ta'min qiladi.

To'g'ri ishbay tizimida ish haqi ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdoriga qarab yagona ishbay ish haqi narxlarida to'lanadi va ishlab chiqarish me'yorlarining bajarilish darajasi hisobga olinmaydi. Bunda ishchiga bajargan ishlariga beriladigan ish haqini hisoblash uchun uning ishlab chiqarilgan mahsuloti miqdori mahsulot birligiga belgilangan ishbay ish haqi narxiga ko'paytiriladi.

Akkord tizimida ishlayotgan jamoa a'zolariga beriladigan ish haqining umumiy summasi oxirgi operatsiyadan keyin texnika nazorati bo'limiga topshirilgan mahsulot miqdoriga qarab belgilanadi. Buning uchun brigadaning har bir a'zosi

tomonidan bajariladigan operatsiyalarning ishbay ish narxlarining yig'indisidan tashkil topgan mahsulot birligiga tegishli ishbay ishning narxi aniqlanib, ushbu ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy miqdoriga ko'paytiriladi. Bu tizimining xususiyatlaridan biri shundan iboratki, brigadaning har bir a'zosi o'zining bajargan ishlarini yozib yuradi va bajargan operatsiyasi uchun ishbay ishlarning narxi unga oldindan ma'lum bo'ladi. Shuning uchun brigada a'zolari o'zlariga tegadigan ish haqini bilib yuradilar.

Hozirgi paytda bizning sanoatimizda eng keng tarqalgan ish haqi tizimi ishbay mukofot tizimidir. Bu tizimda ish haqining ishbay tizimi ma'lum ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining yaxshilanganligi uchun ishchilarni mukofotlash bilan birga qo'shib olib boriladi. Bunday mukofotlar masalan, texnikaviy asoslangan ishlab chiqarish me'yorlarining ortig'i bilan bajarilganligi, mahsulot sifatining yaxshilanganligi va shu kabilar uchun beriladi.

Vaqtbay ish haqi shaklining mohiyati shundan iboratki, unda ish haqi ishlab chiqarilgan mahsulotning miqdori va sifatidan qat'i nazar, xodimlarning malakasiga, ishlagan vaqtiga qarab haq to'lanadi. Ish haqining vaqtbay shakli rejalashtirish va hisobga olish juda qiyin bo'lgan yoki ish vaqtining xarajatlanishi ishlab chiqarish texnikasi tomonidan yuqori darajada reglamentga solinadigan ishlar va uchastkalarda hamda ishchilarni ishbay shakliga o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lmagan joylarda qo'llaniladi.

1.2. “Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi” mavzusini o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari

Dars o‘tish jarayonida mavzuni yoritishda mehnat haqi hisobini to‘g‘ri tashkil qilish uchun eng avvalo shaxsiy tarkib hisobini to‘g‘ri yuritish lozim. Xodimlarni ishga qabul qilish ishdan bo‘shatish, boshqa ishga o‘tkazish, ularga ta‘til berilgani, tunda, ish vaqtidan tashqari vaqtda, bayram kunlarida ishlaganligi haqida ishonchli vaqtida-hisob-kitob qilishi mumkin. Shunga mavofiq, amaldagi qonunlarga binoan mulkchilikning har qanday shakldagi xo‘jalik yurituvchi sub’ekt xodimlari ish haqidan quyidagi pul ushlanmalari va chegirmalari amalga oshiriladi:

- daromad solig‘i;
- pensiya fondiga (hozirgi kunda hisoblangan ish haqiga nisbatan 2,5 %);
- oyning birinchi yarmida berilgan avans;
- xodim xo‘jalik yurituvchi sub’ektga etkazgan moddiy zarar qiymati;
- foydalanilgan ta‘tilning ishlanmagan kunlari uchun to‘langan pullar;
- ba‘zi turdagi jarimalarni undirish;
- ijroiya hujjatlar bo‘yicha;
- kreditga sotilgan tovarlar uchun;
- ishlab chiqarilgan yaroksiz mahsulot uchun;
- kasaba uyushmasiga badal;

Daromad solig‘i O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo‘mitasi tomonidan 1998 yil 23 fevralda tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 11 iyun 1998 yilda ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

“Jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliqni hisoblash va byudjetga to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi yo‘riqnoma asosida ushlab qolinadi. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat Soliq qo‘mitasi 2005 yilda Soliq solish tartibiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 27 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va 2006 yilgi Davlat byudjetining parametrlari to‘g‘risida” 244-sonli qarori va boshqa

qonun hujjatlari bilan kiritilgan asosiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda 2006 yil yanvaridan boshlab ish haqi, mukofotlar va jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari summasidan quyidagi miqdorda soliq olinadi.

Soliq Kodeksi 59-moddasiga ko'ra jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to'lashdan quyidagi jismoniy shaxslar ozod qilinadilar:

1. To'laligicha:

*Bojxona xizmati xodimlari

*Mudofaa, ichki ishlar va favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilari, ichki ishlar organlari xodimlari *O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmagan xorijiy davlatlar diplomatiya vakolatxonalarining boshliqlari, a'zolari, konsullik muassasalarining xodimlari.

2. Qisman, har bir oy uchun eng kam ish haqining to'rt baravari miqdorida:

*O'zbekiston Qahramoni, Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan mukofotlanganlar.

*Bolalikdan nogiron bo'lganlar, shuningdek, I va II guruh nogironlari.

*Qahramon onalar

*Afg'onistonda xizmat qilganlar, Chernobl AES dagi falokat oqibatida jabrlanganlar.

*2 va undan ortiq 16 yoshga to'lmagan bolali yolg'iz onalar.

Ish haqidan ushlab qolinadigan summalar faqat qonun bilan ruxsat etilgan hollarda amalga oshiriladi. Ularga ish haqi hisobidan berilgan bo'nak, daromad solig'i, ijro varaqalari bo'yicha ushlanadigan summalar, ortiqcha berib qo'yilgan ish haqi, shaxsiy uy-joy qurilishi uchun olingan ssudalar bo'yicha qarzlar, dala bog' qurilishi bo'yicha ssudalar qarzlar, yosh oilalar olgan ssudalar bo'yicha qarzlar, kreditga olingan tovarlarning to'lanmagan qismi, ixtiyoriy sug'urta summolari, xo'jalik yurituvchi sub'ektga etkazilgan zararlar uchun ushlanadigan summalar, ish haqining bir qismini ishchi va xizmatchilarning arizasiga ko'ra omonat kassaga o'tkazish, kasaba uyushmasi a'zolarining navbatdagi oy uchun a'zolik to'lovlari va shu kabilar kiradi. Ish haqidan ushlab qolinadigan soliqlar miqdori Moliya vazirligi

tomonidan belgilanib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Daromad solig'i, o'tgan oy uchun keyingi oyning birinchi yarmidagi ish hakidan, masalan, mart oyi uchun aprel oyining birinchi yarmidagi ish haqidan ushlanadi.

Xo'jaliklarda ish haqi ishlab chiqarish xarajat-larining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi va shuning uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektning qanday uchastkalarida mehnat xarajatlanganligiga qarab ish haqi ham o'sha erdagi xarajatlarga qo'shilishi kerak.

Ishchi va xizmatchilar bilan ish haqi va turli to'lovlar bo'yicha hisobkitoblarni rasmiylashtirish uchun **hisob-kitob** foydalaniladi. Bu qaydnoma har bir tsex va bo'limlar uchun tuzilib quyidagi ko'rsatkichlarni aks ettiradi. Ishchi va xizmatchilar ishlab chiqargan mahsulotining, soni, sifati, bajargan ishning hajmi yoki ishlagan vaqtiga karab hisoblangan ish haqi, ushlab kolinadigan soliqlar va boshqa ushlab kolishlar hamda berilishi lozim bo'lgan ish haqi miqdori ko'rsatiladi. Xodimni qo'liga beriladigan ish haqi summasi **ish haqini to'lash qaydnomasiga** ko'chiriladi. Ushbu qaydnomaning titul varag'ida xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbarining ruxsat beruvchi imzosi beriladiyu o'z vaqtida (3 kun ichida) ishchilar tomonidan olinmagan ish haqi keyingi oyga qoldiriladi va deponentlashtiriladi.¹

Ish haqi summasini xarajat schyotlariga tarqatish ish haqini taqsimlash vedomosti yoki mashinogrammasi asosida amalga oshiriladi. Bu vedomost mehnat va ish haqi hisobiga tegishli dastlabki xarajatlarga asoslanib tuziladi va unda ish haqi xarajatlariga kaysi schyotlar debetlanganligi hamda ish haqining ayrim turlari mukammal keltiriladi.

Ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ishchi va xizmatchilarning shaxsiy schyot kartochkalari yuritiladi. Bu kartochkalarga hisob-kitob to'lov vedomostidagi har bir ishchi va xizmatchiga tegishli barcha ko'rsatkichlar ko'chiriladi. Mehnat va ish haqi hisobi mexanizatsiyalashgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda bitta mashinogramma hisob-kitob vedomosti va varaqavasi har bir xodim uchun alohida shaxsiy schyot ko'rsatkichlari bosilgan bo'ladi. Bu mashinogramma-lardan analitik

¹ G'ulomova F.G. "Zamonaviy buhgalteriya hisobi: noldan balansgacha" T. 2011. 47-48 b.

hisob uchun foydalanish maqsadida buxgalteriya ularning har biridan shaxsiy schyotlarni ajratib olib, tegishli xodimning konvertiga solib qo'yadi va konvertni kartotekaga ma'lum tartibda taxlab qo'yadi. Ishchilarning maxsus dam olish davrlari uchun to'lanadigan ish haqini hisoblash bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi alohida xususiyatga ega.

Ishchilarning mehnat ta'tili vaqtiga rezerv qilinadigan summani va ijtimoiy sug'urta bo'yicha ajratmalarni hisobga olishda O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muxofaza qilish vazirining "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida" gi nizomni tasdiqlash to'g'risida buyrug'i (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002 yil mayda ro'yxatdan o'tkazilgan. Ro'yxat rakami 1136) asosida tartibga solinadi.

Nizomda ko'zda tutilgan tartibda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan ijtimoiy sug'rta bo'yicha quyidagi nafaqalar beriladi:

- vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlik uchun;
- homiladorlik va tug'ish uchun;
- bola tug'ilgani uchun;
- qo'shimcha dam olish kuni uchun;
- dafn etish marosimi uchun.

Nafaqa, mehnat qobiliyati tiklangan, nogironlik belgilangan, homiladorlik va tug'ish ta'tili tugagan, vafot etgan yoki bola tug'ilgan kundan boshlab 6 oy muddat ichida murojaat qilinganda to'lanadi. Bunda, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi uni olish uchun murojaat qilingan kungacha bo'lgan 12 oydan oshmagan davr uchun beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik (homiladorlik va tug'ish ta'tili) kunlari xodimning ishdan noqonuniy bo'shatilgan to'g'risida nizo ko'rilayotgan davrga to'g'ri kelgan hollarda, u ishga tiklangan taqdirdagina (barcha mehnatga qobiliyatsiz kunlar uchun) nafaqa olish huquqiga ega bo'ladi.

Nafaqa oyiga bir marta-oyning ikkinchi yarmi uchun beriladigan ish haqi bilan birga to'lanadi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt, muassasa, tashkilot (bundan buyon xo'jalik yurituvchi sub'ekt)lar tomonidan ish joyida byudjetdan tashqari

Pensiya jamg'armasi mablag'larining ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar uchun maqsadga muvofiq xarajatlanishi ustidan nazorat qilish Davlat soliq xizmati organlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi hollarda beriladi:

- vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq kasallikda (shikastlanishda);
- sanatoriy-kurortlarda davolanganda;
- kasallangan oila a'zosini parvarishlash zarur bo'lganda;
- karantinda;
- sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda;
- mehnat qobiliyatini tiklash yoki yasama a'zo (protez) qo'ydirish uchun reabilitatsiya muassasalariga yotqizilganda.

Ikkinchi jahon urushi nogironlariga, baynalmilal jangchilarga, Chernobil AES falokati okibatlarini tugatishda qatnashgan shaxslarga, shuningdek, sanatoriyga davolanishni davom ettirish uchun davolash muassasalaridan o'tkir miokard infarkti bilan kasallangan, jarrohlik uslubi bilan yurakning aortakoronar shuntovkasi va o't pufagini olib tashlashdan keyin bevosita yuborilgan xodimlarga, shuningdek, sil kasalligi bilan og'riganlarga nafaqa sanatoriyda bo'lgan barcha vaqt uchun beriladi.

Ishlayotgan nogironlarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa mehnatda mayiblanish hodisalari yoki kasb kasalligida tashqari, ketma-ket ikki oydan va kalendar yilda uch oydan oshmagan muddatga beriladi.

Ishlayotgan Ikkinchi Jahon Urushining nogironlariga va imtiyozlari jihatdan ularga tenglashtirilgan boshqa nogironlarga, Chernobil AES dagi falokat yoki uning okibatlarini bartaraf etish bo'yicha ishlarni bajarish bilan bog'liq sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan shaxslarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi (mehnatda mayiblanish xodisalari yoki kalendar yilda besh oygacha beriladi).

Agar ishlovchi nogironning vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizligi mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli yuz bersa, nafaqa u to'la sog'aygunga yoki

mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi bilan bog'liq nogironlik guruhi qayta ko'rib chiqilgunga qadar to'lanadi. Sil kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga qobiliyat-sizlik bo'yicha nafaqa shaxs to'la sog'aygunga qadar, lekin ko'pi bilan 10 oyga beriladi.

Xodim sil kasalligi bilan qayta kasallanganda yoki sil kasalligi oqibatida nogiron nafaqa mazkur bandda belgilangan muddatlarga to'lanadi.

Vaqtincha mehnatga kobilyatsizlik quyidagi davrlarga to'g'ri kelganda nafaqa to'lanmaydi:

- ish haqi saqlanmagan ta'til;
- bolani parvarishlash bo'yicha ta'til;
- ish vaqtincha to'xtatilgan;
- xodim ishdan (lavozimdan) chetlashtirilib, ish haqi to'lash to'xtatib qo'yilganligi sababli ishlamagan;
- harbiy o'quv yoki tekshiruv yig'ini;
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'quv yurtlarida tahsil
- olish munosabati bilan berilgan qo'shimcha ta'til.

Ushbu davrlarda boshlanib, davom etayotgan mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi xodim ishga chiqishi (lavozimga tiklanishi) lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi hollarda berilmaydi:

- ishdan yoki boshqa vazifalardan bo'yin tovlash maqsadida o'z salomatligiga ataylab ziyon etkazgan yoxud o'zini kasallikka solganda;
- giyohvandlik yoki mastlik bilan bog'liq harakatlar oqibatida, shuningdek, spirtli va giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish natijasida kasallikka chalinganda(jarohatlanganda);
- jinoyat sodir qilish vaqtida jarohatlanganda;
- sud qarori asosida majburiy davolanishga yuborilganda (ruhiy kasallardan tashqari);
- hibsda bo'lgan davrda;
- sud-tibbiyot ekspertizasidan o'tish davrida.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ish stajining davomiyligidan kat'i nazar ish haqining 100 foizi miqdorida quyidagilarda to'lanadi:

- ishlayotgan Ikkinchi jahon urushi katnashchilariga;
- baynalmilal jangchilarga va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga;
- qaramog'ida 16 yoshga (o'quvchilar 18 yoshga) etmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo'lgan xodimlarga;
- Chernobil AES dagi avariya oqibatlarini tugatishda qatnashgan xodimlarga;
- Chernobil AES dagi avariya natijasida radioaktiv ifloslanish zonasidan evakuatsiya qilingan va ko'chirilgan, qon hosil kiluvchi organlar kasalliklari (o'tkir leykoz);
- qalqonsimon bez (adenoma, rak) va xavfli o'smalar bilan bog'liq kasalliklarga chalingan xodimlarga;
- mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi natijasida vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz bo'lgan xodimlarga.

a) umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga- ish haqining 100 foizi miqdorida;

b) umumiy ish staji 5 yildan 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga-ish haqining 80 foizi miqdorida;

v) umumiy ish staji 5 yilgacha bo'lgan xodimlarga-ish haqining 60 foizi miqdorida;

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa barcha hollarda belgilangan eng kam ish haqidan kam bo'lmasligi va nafaqa hisoblab chiqarilgan ish haqidan yuqori bo'lmasligi lozim.

Nafaqa miqdori vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlangan kungacha, mehnat daftarchasi yoki uning o'rniga berilgan boshqa hujjat, shuningdek, ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan berilgan ma'lumotnoma asosida hisoblangan umumiy ish stajiga muvofiq aniqlanadi.

Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalarni tayinlash uchun umumiy ish stajini hisoblash tartibi.

Umumiy ish staji belgilangan tartibda rasmiylash-tirilgan mehnat daftarchasi yoki uning o'rniga berilgan boshqa hujjat asosida aniqlanadi.

Umumiy ish staji to'g'risidagi hujjatlar bo'lmaganda ish davri guvohlar ko'rsatmasi asosida belgilanadi.

Yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs va dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajiga ular byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan davrlari kiritiladi.

Umumiy ish stajiga quyidagilar kiradi:

a) faoliyat turi, mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'iy nazar, xodim davlat tomonidan ijtimoiy sug'urtalangan holda bajargan har qanday ish, agar u byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan bo'lsa.

b) xarbiy xizmat, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar, milliy xavfsizlik organlaridagi hamda chegara ko'shinlaridagi xizmat davri;

v) harbiylashtirilgan soqchilik, maxsus aloqa organlari hamda tog'-qutqaruv qismlaridagi xizmat davri, qaysi idoraga buysunishidan kat'iy nazar;

g) diniy tashkilotlarda ishlagan davr, agar ular byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali to'lab kelgan bo'lsalar;

d) yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs va dehqon xo'jaligi a'zosining byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan davr;

e) alohida fuqarolarga yollanib ishlagan davr (uy xodimlari, kotibalar, enagalar, haydovchilar, qorovullar va boshqalar), agar ular byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lab kelgan bo'lsalar;

j) asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortilgan va keyinchalik oqlangan fuqarolarning qamoqda bo'lgan va maxbuslikni o'tagan davri.

Sanoatning mavsumiy tarmoqlaridagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda band bo'lgan xodimlarga mavsum davomidagi ish bir yilga, mavsumda to'liq ishlamagan takdirda, haqiqiy ishlagan davr hisobga olinadi.

Chet elda ishlagan ish davri, agar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga belgilangan sug'urta badallari to'lab kelingan bo'lsa va davlatlararo bitimlarda boshqa imtiyozliroq holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, ish stajiga hisoblandi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning chet elda yollanib (bitim asosida) ishlagan ish davri tashqi mehnat daftarchasiga kiritilgan yozuvlar bo'yicha, agar byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali to'lab kelingan bo'lsa, ish stajiga hisoblanadi.

Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa.

Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqani tayinlash va to'lash uchun belgilangan tartibda berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asos bo'ladi. Homiladorlik va tug'ish bo'yicha berilgan vaqtincha mehnatga layokatsizlik varaqasi yo'qolgan hollarda nafaqa uning o'rniga takroriy berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (dublikat) asosida beriladi.

Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa (shu jumladan, homila tushgan hollarda) vaqtincha mehnatga layokatsizlik varaqasida ko'rsatilgan barcha davr uchun to'lanadi. Xodim ishdan bo'shatilishining noto'g'riligi haqida nizo ketayotgan davrda homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til berilganda, nafaqa u ishga qayta tiklangan taqdirda beriladi. Bunda homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa ayolni ishga qayta tiklash to'g'risida qaror chiqqandan so'ng, nafaqa to'lanmagan barcha mehnatga qobiliyatsizlik kunlar uchun to'lanadi.

Ish haqi to'lash to'xtalib, ishdan (lavozimdan) chetlashtirish oqibatida ayol ishlamagan davrda homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi berilgan holda nafaqa to'lanmaydi. Agar homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til ishga qo'yilgandan keyin ham davom etadigan bo'lsa, nafaqa u ishga chiqishi lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlilik, homiladorlik va tug'ishbo'yicha nafaqalarni hisoblash tartibi.

Vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizlilik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqalar barcha hollarda xodimning haqiqiy ish haqidan hisoblab chiqariladi.

Nafaqalarni hisoblashda asos qilib olinadigan haqiqiy ish haqiga ish joyidan, sug'urta badallari undirilib to'lanadigan jami ish haqi to'lovlari kiradi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik yoki homiladorlik ta'tili boshlangan oydan oldingi 12 oy davrida olgan va sug'urta badallari berilgan barcha mukofotlarning 1/12 qismi nafaqa hisoblab chiqariladigan oylik ish haqiga qo'shilib, o'rtacha oylik ish haqi miqdori aniqlanadi. Xodim vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizligi sababli to'la ishlamagan, homiladorlik va tug'ish, bola uch yoshga to'lgunga qadar bolaga qarash ta'tilida bo'lgan, harbiy o'quv yoki sinov yig'inlarda yoki boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektda ishlash uchun yuborilgan oylar mukofot summasi bo'linadigan oylardan chiqarib tashlanadi. Agar hisoblash uchun oydan kam bo'lgan davr olinsa, har bir oyda chorak mukofotining uchdan bir qismi hisobga olinadi.

Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa.

Nogiron bolasini tarbiyalayotgan ishlovchi ota-onaning biriga (vasiyga, homiyga) bola o'n olti yoshga to'lgunga qadar davlat ijtimoiy sug'urtasi va mablag'lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdoridan haq to'langan holda oyga qo'shimcha bir dam olish kuni beriladi.

Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa.

Dafn etish marosimi uchun nafaqa xodim yoki uning qaramog'ida bo'lgan quyidagi oila a'zolari vafot etganda beriladi:

a) turmush o'rtog'i;

v) 18 yoshga to'lmagan yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan kat'iy nazar) bolalari, aka-ukalari va opa-sigillari;

v) ota-onasi;

g) bobosi yoki buvisi.

Yashash uchun mustaqil mablag' manbaiga ega bo'lgan (ish haqi, pensiya, stipendiya oluvchi, shirkat xo'jaligining mehnatga qobiliyatli a'zolari hisoblanuvchi va hokazo) oila a'zolari qaramog'ida turgan deb hisoblanmaydi.

Nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi.

Nafaqalar xodimning asosiy ish joyidan xo'jalik yurituvchi sub'ektning Ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiyasi yoki shu ish uchun vakil qilingan komissiya a'zosi tomonidan tayinlanadi. Komissiya tarkibi, a'zolari soni va raisi xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbarining buyrug'i yoki boshqaruvning qarori bilan tasdiqlanadi.

Mehnatda mayiblanish tufayli vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa komissiya tomonidan (jarohatlangan xodimning ahvoli komissiya majlisiga kelishga imkon bergan taqdirda uning ishtirokida) tayinlanadi. Nafaqadan mahrum etish, nafaqadan yoki qisman rad etish masalasi nafaqa oluvchining ishtirokida ko'rib chiqiladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektning bosh buxgalteriya komissiya bilan bir qatorda nafaqa to'lash bo'yicha mablag'larning to'g'ri xarajatlanishi uchun javobgardir.

Nafaqalarni to'lash uchun qilingan xarajatlar qonunchilikda xilof rafishda amalga oshirilganda xo'jalik yurituvchi sub'ekt, tashkilot, muassasalari tomonidan qilingan xarajatlar Pensiya jamg'armasi hisobiga qabul qilinadi va ular xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisobiga yozib qo'yiladi.

Kasallik tufayli vaqtinchalik mehnat qobiliyati yuqotgan xodimlarga nafaqa hisoblash.

Davolash (tibbiy) muassasi tomonidan berilgan mehnat qobiliyatini yo'qotgan to'g'risida varaqa-byulleten nafaqani hisoblash uchun asos bo'ladi.

Nafaqa miqdori kasallikdan ilgari ishlangan oyning o'rtacha ish haqi, kasallik davom etish hamda uzluksiz mehnat stajiga bog'liq. Ish shtaji 5 yilgacha bo'lganda ish haqining 60%, 5 yildan 8 yilgacha-80%, 8 yil va undan ortiq bo'lganda 100% hisoblanadi. Ish shtajidan kat'iy nazar ish haqining 100% miqdorida homiladorlik va tug'ish bo'yicha, ishlab chiqarish jaroxati va kasb kasalligi bo'yicha 16 yoshgacha (18 yoshgacha agar (o'quvchi bo'lsa) 3 ta bolasi bo'lgan ishchilarga, urush nogironlariga to'lanadi.

O'rtacha oylik ish haqini shu oydagi ish kunlari soniga bo'linib o'rtacha kunlik ish haqi summasi aniklanadi. o'rtacha kunlik ish haqini nafaqa % va kasal kunlar soniga ko'paytirib 100 ga bo'linadi.

II BOB. “MEHNAT VA ISH HAQIDA SOLIQLAR VA BOSHQA USHLANMALAR HISOBI” MAVZUSINI MUSTAQIL O‘RGANISHDA SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISH

2.1. Mavzu bo‘yicha mustaqil ishlarni tashkil etish va ularning o‘ziga xos xususiyatlari

Hozirgi kunda o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadida turli metodlarni foydalanib dars o‘tishni talab etadi. Har bir fan jumladan iqtisodiy fanlar, mutaxassislik fani sifatida buxgalteriya hisobi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Biz har bir fanning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olganimizdagina samarali dars o‘tish metodini tanlashni hamda o‘quvchi talabalarni darsga faol qatnashishini ta’minlaymiz. Har bir fanning boshqa fanlardan farqlanuvchi xususiyati eng avvalo, uning predmeti, fanni oldiga qo‘yilgan maqsadi funktsiya va vazifalarida o‘z aksini topadi. Shunga mavzuni yoritishda mustaqil ishning tashkil etish metodidan foydalanishni talab etadi. Shunga muvofiq axborotning asosiy qismini talaba mustaqil ravishda oladi. Ayniqsa internetning kiritilishi bilan uning doirasi yanada kengaydi.

Ta’lim berishning an’anaviy usullari orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, faollikka o‘rgatish qiyin. An’anaviy ta’limda tushuntirish, ma’lumki, o‘qitishning asosiy shakllari – ma’ruza, seminar, amaliy mashg‘ulotlar, laboratoriya ishlari, maslahat rejalashtiriladi, o‘quv soatlari ajratiladi. Ishlab chiqarish amaliyoti auditoriyadan tashqarida o‘tkazilsada, unga ham avvaldan sotalar belgilanadi.

Bilim olish, maxsus malakaga ega bo‘lish uchun dunyoqarashini shakllantirishda auditoriyada o‘tiladigan darslardan tashqari talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlar ham katta rol o‘ynaydi.

Mustaqil ish faoliyatida bilimlarni egallash bilan birga, ko‘nikmalarni shakllantirish ham mustaqil amalga oshiriladi.

Borgan sari ortib boradigan mustaqil tayyorlanish vaqtini samarali bo‘lishini ta’minlashda ikki narsaga e’tibor qaratish kerak:

Birinchidan amal qilish;

O'quvchilarning faollik ko'rsatmasligi, faqat o'qituvchining ma'ruzasini tinglashi va topshiriqlarni bajarishi, ularning mustaqil ish – o'qishning, aqliy mehnatning alohida turi.

Ikkinchidan so'rash, mustahkamlash, baholash tartibiga amal qilinadi.

Bugungi kunda quyidagilar an'anaviy ta'limning kamchiliklari sifatida e'tirof etilmoqda:

- ta'lim jarayonida o'qituvchining ko'proq faollik ko'rsatishi, faqat tushuntirish, buyruq berish, o'z so'zini o'tkazishga harakat qilish;
- ta'lim jarayonida o'quvchilarga asosan nazariy bilim (ma'lumotlar) berilishi;
- ta'limda majburiylik, nasihatgo'ylik, qattiqqo'llik, avtoritarizm tamoyillarga mustaqil fikr yuritishga, tashabbuskorlikka o'rgatilmaslari;
- ta'limning o'rtacha darajada bilim oluvchi o'quvchilar uchun mo'ljallanganligi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'qitishning interfaol usullari keng qo'llanilmoqda. Bu usullar o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish malakasini shakllantirishni taqozo etadi. O'qitishning interfaol usullari afzalliklarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida teng hamkorlik o'rnatiladi;
- dars jarayoni o'qituvchi va o'quvchining ichki motivatsiyasiga tayaniladi: majburlab o'qitilmaydi, (lekin dunyoda kerak degan so'z bor, inson o'zini majbur qilishi kerakki, gohida unga ko'ra hayot mamot masalasi hal bo'ladi, buni ham unutmaslik zarur) o'quvchi-talabalar tabaqalashtirilib o'qitiladi;
- ta'lim berishda o'quvchi-talabalar aqliy rivojlanganlik darajasi, qobiliyati e'tiborga olinadi;
- o'quvchi talabalar ko'proq mustaqil ta'lim oladilar;
- ta'lim jarayonining ob'ekti o'qituvchi emas, o'quvchi hisoblanadi;

Ta'lim jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning interfaol usullari qo'llash o'qituvchining ijodkorlik mahoratini, qolaversa, mas'uliyatini yanada

oshiradi. Bundan kelib chiqadiki, yangi pedagogik texnologiyaning maqsadi o'qitish emas, balki ularni mustaqil o'qishga o'rgatishdir. Demak, ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish malakasini shakllantirishda, muhim omil hisoblanadi.

Talaba mustaqil ishlash ko'nikmasini egallamasa, zamon talabi darajasidagi mutaxassis bo'lib etisha olmaydi, chunki talabaning o'qish yillari davomida olgan bilimlarning ko'p kismi u faoliyat boshlagunga qadar eskiradi, ko'pgina bilimlar esa unutiladi. Bilimning eskirishi tez, axborot oqimi nihoyatda katta bo'lgan hozirgi davrda mustaqil o'qishga, o'z ustida tinmay ishlash, izlanishga o'rganish har bir mutaxassis uchun nihoyatda zarur.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi «Ta'lim to'g'risida» qonun qabul qilishdan maqsad raqobatbardosh mutaxassis va talabga javob beradigan yuksak darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassis tayyorlashdir. Bu maqsadni amalga oshirishda talabalarni o'quv-tarbiyaviy, ilmiy faoliyati, mustakil ishlash vaqt byudjeti, tadqiqot ob'ekti alohida ahamiyatga ega.

Ta'limning reyting tizimi, ayniqsa o'qish jarayoniga kirib kelayotgan yangiliklar, axborot hajmining kattaligi talabalardan mustaqil ishlash va vaqtdan to'g'ri foydalanishni, uni tejash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Har qanday talaba, bo'lg'usi mutaxassis. Tahlil qilish, baholash, har qanday vaziyatda to'g'ri yo'l tanlay bilish ko'n jihatdan uning olgan bilimiga bogliq. Mukammal bilim esa dars, mashg'ulotlarda qatnashishdan tashqari mustaqil mutolaa qilish, vaqtdan samarali foydalanish orqali vujudga keladi.

Bilim olish, mahsus malakaga ega bo'lish, talabalarni dunyo qarashini shakllantirishda auditoriyada o'tiladigan darslardan tashqari talabalar tomonidan bajariladigan mustaqil ishlar katta rol o'ynaydi. Ayniqsa hozirgi axborot asrida borgan sari, bir tomondan axborot miqdori, yangiliklar ortib borsa, ikkinchi tomondan axborot olish manbalari rang-baranglashib boradi. Ularning ahamiyati ortib boradi. Demak talabalarni o'z ustilarida mustaqil ishlashlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Talabalarning mustaqil ishini tashkil etishning asosiy va birinchi tamoyili uning sistematik tarzda, ya'ni doimiy uzluksiz ravishda amalga oshirishdir. Ma'lumki, o'quv jarayonini tashkil etishda qat'iy ketma-ketlik, uzviylikni muntazam olib borish talab qilinadi. Talaba auditoriyada olgan bilimni mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirish uchun doimo har kuni mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak.

Bugungi o'tiladigan mavzuni yaxshi tushunishi va o'zlashtirishi uchun o'tilganlarni o'z qobiliyati va olgan bilimi darajasini yanada chuqurlashtirishga intilishi, mustaqil takrorlashi, o'rganishi zarur. Chunki ma'ruzada talabaga yo'llanma beriladi. Dars davomida mavzuga tegishli, barcha asosiy savollarni muhokama qilib bo'lmaydi. Uning iloji yo'q, ma'ruzada o'tilgan, muhokama qilingan masalalarni psixologlarni tadqiqotiga atigi 5% talabalar yodida qolar ekan. O'zi o'qib o'rgangani, o'rganganlarini boshkalarga o'rgatishi esa bir necha baravar ko'p yodida qolar ekan. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, talabaning o'zini mustaqil tayyorlanib o'qishi fanni o'rganishda, uni asosiy mazmunini tushunish va o'zlashtirishida, tahlil qilishi, o'z fikrini ifodalashida muhim rol o'ynaydi.

Talabaning mustaqil ishini asosiy maqsadi o'qituvchining rahbarligi va nazorati asosida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdir. Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- kerakli ma'lumotlarni izlab topish, ularni qulay usullari va vositalarini aniqlash;
- axborot manbaalaridan samarali foydalanish;
- an'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- internet tarmog'idan samarali foydalanish;
- berilgan topshiriqni muntazam va me'yorida bajarish;

- ma'lumotlar bazasini tahlili etish;
- topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashish;
- natijalarni muhokamaga tayyorlash va ko'rsatilgan kamchiliklarni qayta ishlash;
- ishlab chiqilgan echim, loyiha yoki g'oyani asoslash, mutaxassislar jamoasida himoya qilish va boshqalar.

Talabalar mustaqil ishini tashkil qilish shakllari turlicha bo'lib, ularni bir qismi o'quv rejasida ko'zda tutilgan bo'lib, uni har bir talaba bajarishi shart bo'lsa, ikkinchi qismi ixtiyoriy, ya'ni talabalar o'z hohishi bilan mustaqil bajarishlari mumkin.

Mustaqil ishni tashkil etishning eng muhim xususiyati shundaki, uni talabaning o'zi mustaqil ravishda tashkil qiladi. Shuning uun talabaga uni rejalashtirish, vaqtini ratsional taqsimlashga yordam lozim.

Mustaqil ishni tashkil etishning muhim xususiyatlaridan yana biri mustaqil ishni bajarish uchun talaba o'zini-o'zi majbur qilish kerak. bunda ham sub'ektiv omil asosiy o'rinda turadi. Talabalarni mustaqil ishini takshil etishda o'qishni boshqa shakllariga o'xshab umumiy printsiplar mavjud. Mustaqil ishni ular asosida tashkil qilish kerak. mustaqil ishni tashkil etishda eng avvalo, oddiy narsaga ahamiyat berish lozim. Bunday qaraganda uni hamma biladi, lekin ko'pchilik unga amal qilmaydi. Shuning uchun mustaqil ishni tashkil etishni oddiy elementa printsiplarini o'zlashtirish birinchi darajalai ahamiyatga ega ana shu murakkab jarayonni to'laligicha qamrab oladi.

Har bir talaba o'zining mustaqil ishini tashkil etishni nimadan boshlashi kerak?

Qanday maqsad qo'yiladi? Ish qancha davom etadi? Uni bajarishda qanday usullardan foydalaniladi, aniq ko'z oldiga keltira olishlari kerak. Yana shuni yoddan chiqarmaslik kerakki, mustaqil ishlarni tashkil qilish qoidalari ishlab chiqildi degani, bu ishni tashkil etildi degani emas. O'z mustaqil ishini qanday bajarishni har bir talabaning o'zi tashkil etadi. Muvaffaqiyatga erishish uchun talabaning o'zi sabr-toqat bilan, mashaqqatlardan qo'rqmay o'z ustida ishlashi kerak. buni esa talabani o'zi rejalashtiradi va amalga oshiradi.

Mustaqil ishni bajarishni tashkil qilishning asosiy printsiplari uning muntazamligidir. O'quv jarayonida qat'iy izchillik va ketma-ketlik mavjud. Auditoriyada seminar, amaliy mashg'ulot, laboratoriyada olgan bilimni puxta bo'lishi uchun doimo ularga tayyorlanishi kerak. bugungi ma'ruzani yaxshi tushunish va o'zlashtirish uchun, avvalgi mavzu ustida ishlash kerak. masalani nazariy jihatdan chuqur o'zlashtirmay turib masala echish, amalda uni qanday namoyon bo'lishini tushunish qiyin. Har qanday predmetni uni muntazam ravishda o'zlashtirish mumkin. Yaxshi o'qish, mustaqil ijodkor mutaxassis bo'lish uchun talaba har kuni muntazam o'z ustida ishlashi kerak.

O'z ustida muntazam ishlash ko'nikmasini hosil qilish uchun mustaqil ishlarni qanday, qay tartibda bajarishni har qanday mehnatni, vaqtni rejalashtirganday rejalashtirish kerak.

Har bir talaba individual tarzda umumiy vaqtini fanlar bo'yicha tabaqalashtirgan holda rejalashtirishi kerak. fanlar bo'yicha ajratilgan vaqt talabani darsga tayyorlanishi, o'quv rejasi bo'yicha fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga etarli bo'lishini ko'zda tutadi. Undan kelib chiqib har bir talaba o'z haftalik rejasini kunlar bo'yicha tuzadi. Mustaqil ishlarni rejalashtirish yuzaki qaraganda talabaga hech narsa bermayotgandan. Hech qanaqa yordami yo'qday tuyuladi. Lekin tajriba shuni ko'rsatadiki, a'lochi talabalar o'z vaqtlarini aniq rejalashtiradilar va uni bajarishga harakat qiladilar.

O'zlashtirish bo'yicha hatto butun fakultet muvaffaqiyatini ham ko'p jihatdan talabalarni o'z vaqtlarini to'g'ri rejalashtirish, uni bajarish bilan bog'lash mumkin.

Mustaqil ishlarni bajarish muddati jihatidan hohlaganicha davom etishi mumkin emas. Tajriba shuni ko'rsatadiki, 17-25 yosh darajasida mehnatni ratsional tashkil etganda bir sutkada 9 soat unumli ishlash mumkin ekan. Haddan tashqari uzoq o'tiradigan bo'lsa, mehnat unum pasayadi, odam charchaydi, keyingi kunlari charchog'i yozilishi qiyin bo'lgani sababli, avvalgiday ishlay olmaydi.

Shuning uchun mustaqil ishni rejalashtirganda auditoriyada o'tkazgan vaqtini hisobga olishi kerak. agar, auditoriyada dars soatlari 6 soat bo'ladigan bo'lsa,

mustaqil ishlash 3 soat, auditoriyada dars undan kam bo'lsa 3 soatdan ko'proq, agarda ko'p bo'lsa kamroq tarta rejalashtirish kerak.

Shunday qilib, haftalik mustaqil ish bajarish vaqti 22-24 soat atrofida bo'ladi. Albatta bu vaqt talabani normal tarzda diqqat-e'tibor, g'ayrat qilib ishlashini mo'ljallangan belgilanadi. Lekin real hayotida turlicha bo'lishi mumkin. Bir talab o'zini zo'rlab dars tayyorlasa, ikkinchi qiziqib, vaqtini qanday o'tganini ham unutib, predmetni o'rganishga ilhom bilan ijodiy yondashib kirishib ketadi. Uchinchisi esa umuman dars tayyorlagisi kelmaydi.

Bunga qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablarni keltirish mumkin.

Mustaqil ishni tashkil qilishni ish tartibini belgilash katta ahamiyatga ega.

Mustaqil ishlarni bajarish uchun vaqtni semestr davomida kunlar bo'yicha taqsimlash, uni ratsional tashkil qilishning muhim printsipi, qoidasi hisoblanadi. Goh umuman dars tayyorlamay, goh haddan tashqari shoshib, shiddat bilan, ayniqsa semestr yakuniga, oraliq nazorat yakuniga yaqin qoldirgan, bajarmagan ishlarni tezda bajarishga harakat qilish ijobiy natija berishi qiyin. Bu talabanning mehnati samaradorligini, qilgan ishidan qoniqish hissini pasaytiradi. Odatda talabanning dars jadvali belgilaydi. Lekin ko'p narsa talabanning o'ziga ham bog'liq. Masalan doklad, referat, nazorat ishi, seminar darsiga tayyorlanishga har hafatada ma'lum vaqt ajratilib, muntazam ravishda olib borilmasa, kutilgan natija bermaydi. Referat yoki doklad yozish kerak bo'lsa, uni orqaga surmay tezda kirishish kerak. bunda o'qituvchi talabaga, ayniqsa birinchi kurs talabalariga referat nima, doklad nima, uni qanday yozish, qanday tarzda adabiyot tanlash kerakligini tushuntirish zarur.

Adabiyotlarni tanlashda talabalarga iqtisodiy fanlardan dastur va seminar darslari rejasida ko'rsatilgan adabiyotlarni taklif qilish mumkin. Undan tashqari hozirgi paytda chop qilinatyogan kitoblarning ko'pchiligida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati mavjud. Ana shu ro'yxatdan foydalanib, zarur adabiyotlarni kutubxonada, o'quv zalida bo'lsa olib o'qish mumkin.

1. Dars o'tilgandan so'ng bajariladigan ishlar, uy vazifalarini bajarishda darslik, o'quv qo'llanmalari bilan ishash, konspekt tayyorlash;

2. Tipik topshiriqlarni echish. Bunda talaba avvalgi bilimlarini xotirada qayta tiklaydi va qisman qayta o'zgartirib, aniq topshiriqlarga qo'llaydi. Masalan, masala, mashq echish;

3. O'rganilgan bilimlarni tipik bo'lmagan sharoitda qo'llash. Talaba avval o'rgangan bilimlarini yangi avvalgidan o'zgargan sharoitda foydalanadi. Sharoitlarda ma'lum umumiylik bo'lishi mumkin.

4. Ijodiy faoliyatga asos yaratish. Bunda talaba o'rganilayotgan sohaning mohiyatiga tushunadi, uning yangi munosabat, bog'lanishlarini aniqlaydi, g'oyalar va tushunchalarni yangi sharoitga bog'laydi.

Barcha mustaqil ishlar talabalarda ijodiy ishlash ko'nikmasini hosil qilishga qaratilgan. Talaba ijodiy ishlashga o'rgatilmasa, u ma'lum mavzuga oid materiallarni turli manbalardan ko'chirib kelish bilan kifoyalanib qolishi hamda o'zi mustaqil fikr bildirishga qiynalishi mumkin¹.

Mustaqil ishlarni individual - didaktik maqsadlarni amalga oshirish nuqtai nazaridan ham 4 guruhga ajratish mumkin:

1. Bilimlarni dastlabki shakllanishiga, idrok qilishga undaydigan vazifalar. Bunda o'quvchi, talabalar ulardan maqsadga erishish uchun nima talab qilinishi aniq bo'lishi lozim. Vazifalar - axborotlarni, ma'lumotlarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'ladi;

2. O'zlashtirishga axborot, ma'lumotlarni xotirada saqlash va qayta jonlantirish va qayta ishlashga qaratilgan topshiriqlar. Bunda avval egallangan bilimlarni to'g'ri jalb qilish, faollashtirish asosida bajariladigan hamda aniq sharoitda tatbiq etish talab qilinadigan vazifalar beriladi;

3. Avval o'zlashtirilgan, qolipga tushgan, tajriba to'planishi natijasidagi bilim, malaka, ko'nikmalarga yangicha nuqtai nazardan yondashishni talab qiluvchi topshiriqlar. Ularga masalaning mohiyatini izlash, yangicha echimlar topish, yangicha g'oya, fikrlar bilan ifodalashni talab etiladigan vazifalar beriladi;

4. Ijodiy faoliyatga undovchi topshiriqlar.

¹ Rochinskiy V.M. "Azbuka pedagogicheskogo truda" M: 1990 str. 33.

Talabalar mustaqil ishini tashkil etishda muayyan fan (kurs) ning hususiyatlarini shuningdek, har bir talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
 - Prezident asarlari va iqtisodiy masalalarni tadqiq qilishga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni konspekt qilish;
 - seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;
 - berilgan mavzular bo'yicha referat, axborot tayyorlash;
- O'rganilayotgan fanning eng dolzarb muammolarini qamrab oluvchi referatlar yozish;
- laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko'rish;
 - hisob, grafik ishlarini bajarish;
 - nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash;
 - amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;
 - maket, model va namunalar yaratish;
 - ilmiy maqola, anjumanga dokladlar, ma'ruza tezislarini tayyorlash;
- ijtimoiy, iqtisodiy siyosiy mavzularda bo'lib o'tadigan ilmiy, amaliy konferentsiya, seminar mashg'ulotlar va davra suhbatlariga tayyorgarlik ko'rish va ularda qatnashish;
 - turli jamg'armalar tomonidan tashkil qilingan tanlovlarda ishtirok etish;
 - o'rganilayotgan fan bo'yicha mavjud asosiy ilmiy adabiyotlarga annotatsiyai yozish va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ishlar tarkibida talabalardan alohida diqqat-e'tibor bilan ishlashni talab qiladigan mustaqil ish o'rganilayotgan fandan kurs ishi hamda bitiruv malakaviy ishi yozishdir.

O'qitiladigan fanning xususiyalaridan kelib chiqqan holda, mustaqil ishni tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanishi mumkin.

Mustaqil bajariladigan ishlardan bir iqtisodiy masalalarga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarni yoki o'quv adabiyotlarni konspekt qilishdir. Konspekt qilish - talabani fanni o'zlashtirishi uchun katta yordam beradi. Lekin eng asosiysi talabalar konspekt qilishni to'g'ridan-to'g'ri kechirish deb tushunmasliklari kerak.

Berilgan topshiriqni bajarish o'qishdan boshlanadi. O'qish bu hali o'zlashtirish emas. O'qish, o'qilgan matnni anglash kerak. tushunish, o'zlashtirish uchun qo'shimcha ravishda aqlni ishlatish talab qilinadi.

O'zlashtirish bu yodda saqlash degani emas, albatta u o'zlashtirishga yordam beradi. Boshqacha aytganda, o'qish bu o'qish emas. Tushunish boshqa, tushunganni o'zlashtirilganini yodda saqlash esa yana boshqa narsa, hammasi ham aqlni ishlatishni alohida holatini talab qiladi. O'qishga minimum vaqt va kuch sarflashga harakat qilib asosiy diqqatni tushunishga, tushunishga, tushunganini yozishga, yodda saqlashga harakat qilish kerak. sarflanadigan vaqt, uni o'qishga qancha va tushunish uchun o'ylashga qancha sarflanishi mavzuga, uning murakkablik darajasiga bog'liq.

Talabalarni iqtisodiy fanlarni o'rganishlarida iqtisodiy muammolarga bag'ishlangan eng yaxshi adabiyotlar bilan tanishtirish, etakchi olimlar bilan uchrashuvlar tashkil etish muhim rol o'ynaydi.

Undan tashqari ilmiy to'garak ishini muntazam tashkil etish, talabalarning ijodiy kunlari, ilmiy davralari, anjumanlari, konkursdari olimpiada va ko'rgazmalarini vaqti-vaqti bilan o'tkazib turish shubhasiz talabalar faolligini oshiradi. Ularni fanni o'rganishga rag'batlantiradi.

Talabalarni mustaqil ravishda ijodiy izlanishga o'rgatishda talabalarni kafedra tomonidantashkil etilgan ilmiy to'garaklar katta ahamiyatga ega. Bunda kafedra o'rganilayotgan fan bo'yicha talabalarning qiziqishi, fandagi yangiliklar, o'rganilishi, tadqiq etilishi lozim bo'lgan muammolarni ilmiy to'garaklarda muhokama qilinishini ko'zda tutishi kerak.

Talabalar to'garakda tayyorlagan ilmiy doklidlarni tinglovchilar hukmiga havola etar ekanlar, to'garak a'zolari ham uni muhokamasida faol ishtirok etishlarini ta'minlash zarur. To'garak a'zolarini soni, muhokama qilinadigan masalar, ilmiy doklidlarni miqdori, mavzularning mazmuni va boshqalarga ko'ra to'garak rahbari oy davomida ilmiy to'garaklar majlisi o'tadigan kunlarni belgilaydi.

Eng yaxshi baho berilgan ilmiy doklidlarni talabalarning ilmiy konferentsiyalarida qatnashishga tavsiya etiladi.

O'tkaziladigan konferentsiyani umumiy mavzusini tasdiqlagach, doklidlarni mavzu yo'nalishiga ko'ra guruhlariga ajratgan ma'qul.

O'tqaziladigan talabalarning ilmiy konferentsiyasida eng yaxshi deb topilgan doklidlarni rag'batlantiriladi, keyingi bosqichlarda qatnashishga tavsiya etiladi.

Shu jumladan fanni mustaqil o'rganishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan o'quv shakllaridan biri kurs ishidir. Kurs ishini yozish va himoya qilish jarayonida talabalar iqtisodiy fanlarni yanada chuqurroq o'rganishda. Iqtisodiy kategoriyasi va qonunlar mohiyatini tushunish murakkab nazariy muammolarni tahlili etish, uni amaliyotda tatbiq qilish haqida uylashga, fikr yuritishga undaydi. Kurs ishining fanni mustaqil o'rganishdagi muhim ahamiyati shundaki, talabalar adabiyotlar bilan ishlashni, ma'lumotlar to'plash, ularni jadval, diagrammalarda tasvirlash, xulosa chiqarish hamda o'tilgan masala yuzasidan o'z fikrlarini bayon qilishga o'rganishadi. Ana shu jarayonda talabalar o'zlari induktiv va deduktiv uslublarini qo'llab alohida hodisa va voqealar asosida umumiy xulosa chiqarishni o'rganadilar. Ushbu yuqorida aytilgan nazariy kategoriyalar qonunlarni tahlil qilishda mustaqil topshiriqlar ishlab chiqish talabalarni o'z ustida ishlash, mavzuni analiz tahlil qilish hamda erkin fikrlashga undaydi.

2.2. Mavzu bo'yicha dars o'tishda topshiriqlar ishlab chiqish va qo'llashda samarali metodlardan foydalanish zaruriyati

Insoniyat o'z tarixiy taraqqiyoti jarayonida to'plagan ijtimoiy tajribalarini, o'quvchi(talaba)lar, albatta, mustaqil o'quv faoliyati metodlari asosidagina egallab

olishlari mumkin bo'ladi. Ko'pgina o'quvchilarning bilim olishda ortda qolishlariga ularning mustaqil ishlash shakl va metodlarini to'g'ri tashkil qilish va rejalashtirishni bilmasliklari sabab bo'ladi. Masalan, o'qish jarayonida o'quvchilarda asta-sekin bilimlarni mustaqil topish, ularni baholash va amaliyotda qo'llash malakasini shakllantirishdan iborat xususiyatlar paydo bo'ladi.

O'quvchilarda u yoki bu o'quv materialini mustaqil o'rganish malakasini shakllantirish jarayoni - pedagog tomonidan maqsadli tashkil etilgan jarayon va uning nazorati ostida amalga oshiriladi, aks hollarda kollejlarda ko'pgina o'quvchilar o'zlarining mustaqil ishlarini qay tarzda tashkil qilishlari kerakligi haqida qiynalishadi.

Ilmiy izlanishlar asosida o'quvchi(talaba)larning yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun auditoriyada va auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu asosida mustaqil ishlarning turlari, mustaqil ishlashning mazmunan izchilligi, mustaqil ishlash natijasida egallanadigan bilim, ko'nikma va malaka ishlab chiqiladi. Iqtisodiy tahlil fanidan mustaqil ishlarni ishlab chiqish quyidagi xususiyatlarga ega.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida nima ishlab chiqarish, kim uchun ishlab chiqarish, qancha ishlab chiqarish va qanday ishlab chiqarishni har bir korxona, firma o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi, buning uchun ular turli axborot olishga, ularni o'rganishga va ish faoliyatiga tatbiq etishga harakat qiladilar.

Shunga asoslanib, ular faktlarga tayanib, iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblab chiqadi. Anashu o'zgarish tendensiyalariga asoslanib xo'jalik faoliyatiga xolisona baho beradi. Xo'jalik yurituvchi o'z ahvollarini bilib olgach, xo'jalik yuritish samarasini oshirish uchun qanday imkoniyatlari bor ekanini, ichki imkoniyatlari yetarlimi, yoki chetdan jalb qilishi kerakmi shuni aniqlab oladilar.

Hammamizga ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida doimo tavakkalchilik hukmron, shuning uchun ham anashu ishlarni sirdan tekshirish tahlil zimmasiga yuklatiladi. Demak, analiz – yunoncha “ajratish” ma'nosini anglatdi. Albatta, atrofimizda yuz berayotgan hodisalardan real xulosa chiqarish, ularga baho berish uchun, uni chuqur o'rganish va ularni keltirib chiqaradigan sabablarini aniqlash

talab etiladi. So‘ng anashular umumlashtirilib, umumiy xulosa qolinadi va oxirgi qaror qabul qilinadi.

Yuqorida bildirilgan fikrlar asosida shunday xulosa kelib chiqadiki, demak, tahlilni bilish orqali to‘g‘ri xulosa chiqarish, baho berish, eng maqbul variantni tanlash va shu asosida qaror qabul qilish faoliyatga qo‘llay bilish muhim ahamiyat kasb etar ekan. Shuningdek fanni chuqur o‘rganish turli metodlar yoki mustaqil ta‘limni joriy etish orqali amalga oshiriladi:

Birinchidan, iqtisodiy tahlil amaliy fan hisoblanib, jamiyat taraqqiyotini mikromiqyosda o‘rganadi, ya‘ni korxona yoki firma, xo‘jalik yurrituvchi sub’yektlar miqyosida mikroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi;

Ikkinchidan, ichki va tashqi faoliyat o‘rganilib, biznes reja tuziladiki, u istiqbolning yo‘nalishini belgilaydi. Tahlil asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinadi;

Uchinchidan, tahlil fani iqtisodiy jarayon, voqea-hodisalarni yuz berishi, rivojlanishi, o‘zgarishini ob’yektiv va sub’yektiv jihatlati hamda sabablarini o‘rganadi;

To‘rtinchidan, fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish uchun asos qilib olingan tamoyillar va fanning o‘ziga xosligini ifodalovchi jihatlarini ochib beradi.¹

Shunday qilib, iqtisodiy tahlil fanini o‘rganishda mustaqil ishlarning o‘rni katta ahamiyat kasb etar ekan. Bunda asosan mustaqil ishlarni qo‘llash tahlilni tashkil etish bosqichlari, tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish, tahlilni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish va ishlab chiqilgan kompyuter dasturlarini qo‘llash, manbalar to‘g‘riligini tekshirish va ularga qo‘yiladigan talablarni bilish naqadar muhimligini o‘rgatishdan iborat.

Quyida biz “Iqtisodiy tahlil” fani yuzasidan mustaqil ishlash dars ishlanmasini tuzib chiqaylik.

Dars mavzusi: Iqtisodiy tahlil fanining tashkil topishi, rivojlanish tarixi, tahlilining predmeti va vazifalari.

¹ Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. D.Tojiboyeva. O‘quv qo‘llanma. Toshkent-20

Dars maqsadi:

- a) **Ta'limiy:** iqtisodiy tahlil fani o'zi qanday fan ekanligi, nima maqsadda o'rganilishi, iqtisodiy tahlil fanining dastlabki tashkil etilishi, rivojlanish bosqichi necha davrni o'z ichiga olishi, boshqa iqtisodiy fanlar bilan qay darajada bog'liqligi borligi haqida ma'lumot berish;
- b) **Tarbiyaviy:** iqtisodiy tahlil fani mobaynida o'quvchilarning darsga qatnashishi, tartib-intizomi ularning dars davomida o'zlarini tutish odobi, shuningdek, o'qituvchilik faoliyatida e'tibor berilishi zarur bo'lgan tarbiyaviy xususiyatlar bilan tanishtirish;
- c) **Rivojlantiruvchi:** o'quvchilarning ko'nikma va malakalarini shakllantirish, mutaxassisliklariga bog'lab dars o'tish jarayonini tashkil etish, fanni ochib berishga qaratilgan tushunchalar bilan tanishtirish, ma'lumotlar, ilmiy izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirish.

Dars turi: mustaqil ta'lim

Dars metodlari: nazariy, ko'rgazmali, aqliy hujum, guruhlarga bo'lib o'qitish, klaster, baliq sxemasi, BBB jadval, T-sxema, masala-mashq, test, konseptual jadval, semantik jadval, case study, tadqiqot, munozara.

Darsning jihozlanishi: ko'rgazmali qurollar va tarqatma materiallar, plakatlar, mavzuga oid adabiyotlar, dars o'tishga oid o'quv- uslubiy qo'llanmalar.

Fanlararo bog'lanish: iqtisodiyot nazariyasi, buxgalteriya, statistika, mikro va makroiqtisodiyot, marketing, menejment, audit va albatta falsafa (bundan tashqari ko'pgina ijtimoiy fanlar bilan ha bog'liq, biz faqat shulardan falsafani misol qilib oldik).

Texnik vositalar: kodoskop, slaydlar, ko'rgazmali qurollar, proektrlar.

Mashg'ulotning borish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi.

1) Tashkiliy qism:

- a) salomlashish; b) tushuntirish ishlarini olib borish; c) o'quvchilarning salohiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil mavzularni taqsimlash jarayoni.

2) Asosiy qism:

- a) o'quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish;

- b) topshiriqlarni bajarish uchun o'qituvchilarni takrorlash;
- c) faqat mustaqil ish bilan bo'lmasdan o'qituvchilarni zeriktirmaslik uchun, ularni chalg'itish maqsadida metodlardan foydalanib o'yinlar tashkil etish;
- d) tushunarsiz holatlar ustida muntazam bosh qotirib, tushuntirish ishlarini olib borish;
- e) natijalarni mustaqil, ijodiy yondoshgan holda takomillashtirish;
- f) bildirilgan fikrlarni muhokama qilish.

3) Yakuniy qism.

Bu bosqichda o'qituvchilarning umumiy savollari birgalikda muhokama qilinadi, o'qituvchi hamma o'qituvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatib eng so'nggi adabiyotlar tarkibini tushuntirib tegishli takliflari bilan tanishtiradi.

Darsning borishi

1. Tashkiliy qism (10daqika). Darsga o'qituvchi kirib keladi va talabalar bilan salomlashib, xona tozaligini tekshirib bo'lgach, navbatchini va davomatni aniqlaydi.

2. Asosiy qism (60daqika). Bu jarayonda o'qituvchilarga mustaqil ish mavzulari taqsimlab beriladi, har bir mustaqil ish yuzasidan tushuntirish ishlarini olib boradi, hamda kerakli adabiyotlar manbalarini keltirib o'tadi. Bundan tashqari mustaqil ishni yozish tartibi qay tarzda amalga oshirilishi haqida ham batafsilroq to'xtalib o'tadi, mustaqil ish uchun maxsus topshiriqlar ishlab chiqadi va takomillashtirish masalalari o'rta tashlanadi.

3. Yakuniy qism (20daqika). Mustaqil ish yuzasidan tuzilgan topshiriqlar qayta muhokamaga qo'yilib, o'qituvchilarni fikri eshitiladi, dolzarb deb hisoblangan masalalar mustaqil ish rejasi sifatida kiritiladi. Shuni unitmaslik kerakki, mustaqil ishni takomillashtirgan holda uni ajoyib qilib tayyorlash ko'proq o'qituvchi zimmasiga yuklatiladi.

Bilimlarni mustaqil ravishda egallashga intilish- o'qituvchi faoliyatining ta'lim muassasasidagi eng ajralib turadigan xususiyati, mustaqil o'qib, bilim orttirish asosi hisoblanadi. Mustaqil o'qib, izlanish jarayoni bu o'qituvchining mustaqil tayyorgarlik ko'rishi demakdir.

Mustaqil ta'lim olish jarayonini faollashtirish uchun talabalarda quyidagi xususiyatlarni shakllantirish zarur.

- Mustaqil ta'lim olishga ishtiyoq;
- Mustaqil ta'lim olish malaka va ko'nikmalari;
- Mustaqil ta'lim olish layoqati.

Mustaqil ta'lim olishga faol rag'bat uyg'otuvchi omillar quyidagilardan iborat:

- Mustaqil faoliyatga bevosita faol qiziqish;
- Axloqiy estetik va ruhiy qoniqish motivlari.

O'quvchilar mustaqil ta'lim olish bilan shug'ullanishlari uchun ularda mustaqillik, faollik va qiziquvchanlik xususiyatlari shakllangan bo'lishi kerak. Mustaqillik bunda o'quvchilarning muammoni hal qilishga, mavzuni o'rganish va amaliy vazifalarni bajarishlariga mustaqil holda ijodiy yondoshishlari tushuniladi. Faollik bunda o'quvchilarning jarayonlarga faol, ishtiyoq bilan kirishishlari tushiniladi. Qiziquvchanlik bunda o'quvchilarning bilim olishga, ko'nikma va malakalarini shakllantirish jarayoniga qiziqish, intilish bilan yondoshishlari tushuniladi.

Avvalo, mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqish uchun unga undovchi xususiyatlar muhim ahamiyat kasb etadi, demak, o'quvchilarning mustaqil faoliyati quyidagi belgilarga ega:

- Mustaqil fikr yuritish va unga intilish;
- Har qanday shart-sharoitda yoki vaziyatlarda bajariladigan ish ob'yektini aniqlay olish;
- Yangi vazifalarni hal etishda o'z yondashuvini amalga oshira olish;
- Egallanishi lozim bo'lgan bilimlarni nafaqat tushunishni, o'rganishni istash, balki ushbu bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishning tez, samarali usullarini izlab topish;
- Bajarilgan ishlarni tahlil qilishda tanqidiy yondashuv;
- O'z g'oya va qarorlarining erkinligi.

Ma'lumki, talabalar ta'lim olish jarayonida o'zlarida bilim olishga ijodiy munosabatlarni shakllantirishlari, dars materiallarini yuqori darajada o'zlashtirishlari kerak.

Mustaqil bilim olish ehtiyojlarining rivojlanishi sub'yektni faollikka undaydi va shu bilan birga uning oldiga bilim va malakalarni egallash vazifasini qo'yadi. Mustaqil bilim olish qanday bo'lish kerak degan savolga quyidagicha javob berish mumkin: o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi faoliyatning yakuni oldindan aniq bo'lgan o'qitish jarayonidan farqli ravishda, mustaqil bilim olishda sub'yekt aniq bo'lmagan va oldindan rejalashtirilmagan natijani qayd etishi kerak, ya'ni bilim, ko'nikma va malakalarning aniq hajmini o'zlashtirishi kerak.

O'qituvchi taklif qilayotgan o'quv materialining qiziqarliligi, tizimliligi, hayotiyiligi har bir guruhda uni chuqur o'rganish uchun mustaqil ish bajarish mohiyatini ochib beradi.

O'quvchilarda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantirish uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

- O'quvchilar o'quv faoliyatining aniq maqsadini belgilash, uning o'quvchilar tomonidan tushinishlariga erishish;
- Har bir o'quvchining ishini idrok etish va shu bilan bir qatorda butun jamoaning ish faoliyatini ham nazardan chetda qoldirmaslik;
- O'quvchilarda o'z mehnatini mustaqil tahlil qilish, xatolar sababini va ularni bartaraf etish hamda oldini olish usullarini toppish qobiliyatlarini hamisha rivojlantirib borish;
- Xatolarni tuzatishga doir tayyor ko'rsatmalar bermaslik, o'quvchilarning o'zi ushbu xatolarni anglash va bartaraf etish usullarini topishlariga erishish;
- O'quvchilarning topshiriqlarning bajarishlariga qarab ijodiy yondoshishlarini hamisha rag'batlantirib turish;
- O'quvchilarni yangi, ilg'or, yuksak unum beradigan ish usullarini qo'llashga undash, paydo bo'ladigan qiyinchiliklarni tushinib yetishida ularga yordam berish, ularning mustaqil ishlashlari uchun sharoit yaratish;

- O'quvchilarning ta'lim jarayoniga ijodiy yondoshishlari, topshiriqlarni ongli bajarishlarini ta'minlashga erishish;
- Yaxshi o'zlashtira olmaydigan talabalarga muntazam ravishda yordam berib turish va ularni ijodiy fikr yuritishga o'rgatish;
- O'quvchilarning ish jarayonida ijodiy yondashib, mustaqil bajargan ishlarini nazorat qilish va munosib baholab borish.

Mustaqil ta'lim o'quvchilarga nisbatan quyidagilarni shakllantirilishiga yordam beradi:

1. Shaxsiy, kasbiy, individual xususiyatlarni namoyon etish;
2. Bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish;
3. Umumtexnik va maxsus fanlarga oid bilimlarin rejalashtirish;
4. O'quv topshiriqlarini tartibga solish va nazorat qilish uchun ongli ravishda foydalana bilish;
5. Ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga asos bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarni topshiriqlarini ishlab chiqishda ularni ikki turga ajratib olish maqsadga muvofiq keladi.

a) Auditoriyada mustaqil ta'lim tashkil etuvchilari:

- *hamkorlikdagi mustaqil ta'lim*: mustaqil ta'limning bu turi o'qituvchi va o'quvchi hamkorligida tashkil etiladi, o'qituvchi o'quvchilarga mustaqil ishlarni tashkilotishlari uchun amaliy yordam beradilar, ma'lum yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar, maslahatlar berib boradi, o'quvchilar anashu asosida mustaqil ta'lim oladilar.
- *O'qituvchi*: o'z pedagogik faoliyati davomida o'quvchilarni mustaqil o'zlashtirishlari uchun qo'shimcha adabiyotlar va topshiriqlar tayyorlaydilar o'quvchilarga ko'rsatma beradilar;
- *Talaba*: o'qituvchi ko'rsatmalari asosida mustaqil ishlarni ijodiy bajaradi, o'z mustaqil ishini bajarish davomida o'qituvchi hamkorligida metod, vosita va shakl tanlaydi, ijodiy topshiriqlarni bajaradi;
- *Metodlar, shakllar, vositalar*: bunda o'quvchilar texnologik jarayonlarni texnik ob'yektlar yordamida mustaqil tanlaydilar va bajaradilar;

- *O'qituvchi nazorati*: o'qituvchi o'quvchilarning ishini tahlil qilib boradilar, qo'yilgan kamchiliklarini aniqlab, amaliy faoliyat usullarini ko'rsatib beradilar;
- *Tuzatish kiritish*: o'qituvchi aniqlagan xatoliklar bartaraf etiladi, amaliy ishlarning eng maqbuli tanlab olinadi;
- *Natija*: o'quvchilar yo'riqnomalar asosida mustaqil ish bajara oladigan, ijodiy tafakkurga ega, texnologik jarayon va texnik ob'yektlarni tanlab, samarali faoliyat olib boradigan mutaxassis bo'lib yetishadi.

b) Auditoriyadan tashqarida mustaqil ta'lim tashkil etuvchilari:

- *Individual mustaqil ta'lim*: o'quvchilar egallagan bilimi, ko'nikma va malakalaridan amaliy faoliyatida foydalanib, individual ta'lim oladilar;
- *Talaba*: egallagan bilimi, ko'nikma va malakalari asosida mustaqil ijodiy shug'ullanadi, o'zining amaliy faoliyatidan kelib chiqqan holda metod va ko'rsatmalarni o'zlari mustaqil tanlaydilar;
- *Psixologik motivlar*: bunda mustaqil ishni tanlash faqat o'quvchining zimmasiga yuklanadi, u qiziqishlari va qobiliyati yetish darajasi asosida faoliyat ko'rsatadi;
- *O'z-o'zini nazorat qilish*: o'quvchi o'zi bajargan ishiga nisbatan tanqidiy qaraydi va xatolarini to'g'rilab xulosa chiqaradi;
- *Yangilik yaratish*: mustaqil ishi faoliyati natijasida muhim o'zgartirishlar kiritadi;
- *Natija*: o'quvchi o'zining intellektual qobiliyatiga mos holda mustaqil ish bajara oladigan, ijodiy tafakkurga ega, texnologik jarayon va texnik ob'yektlarni mustaqil tanlay oladigan va mustaqil ijodiy faoliyat olib boradigan yetuk mutaxassis sifatida namoyon bo'ladi.²

Shuni unutmaslik kerakki, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tizimli va izchil tarzda tashkil etish va nazorat qilish ularning ijodiy mustaqil ishlash qobiliyatlarini o'zgarishda muhim omil ekanligi isbotlangan.


² Ta'lim muammolari, Ilmiy-amaliy jurnal 2012-yil 3-son, 52-bet.

Eng oddiy ko‘rinishga ega bo‘lgan mustaqil ishlashning shakli bu konspekt qilish hisoblanadi.

Konspekt- reja, ko‘chirib olingan matn va tezislarni birlashtirish, asosiy xulosa, faktlar, isbotlar, uslublarni o‘zida jamlash, ifodaning ichki mantiqin iko‘rsatuvchi tuchunchadir. Uning turlari quyidagicha bo‘lishi mumkin.

Referat- mavjud matn yoki bir qancha matnlarni izohlovchi shakllardan biri sanaladi. Konspektdan farqli o‘laroq , referat yangi, muallif matn hisoblanadi. Referatlashtirish esa o‘zida bir yoki bir qancha manbalarni turlashtirish, umumlashtirish, tahlil va sintez qilishga asoslanib ma’lum bir savolni ifoda etishni mujassam etadi. Uning xususiyatlari shundan iboratki, u mufassal isbotlar, solishtirmalar, mulohazalar, baholarni o‘z ichiga olmay faqat muhim savollargagina javob beradi.

1-rasm




1-rasm. Konspekt turlari ko‘rinishi

Referat asosiy e'tiborni yangi ma'lumotlarga qaratadi va dastlabki matnga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqligini ta'minlab beradi. Referat tayyorlash quyidagi vazifalarni hal etib beradi:


- o O'quv predmeti dolzarb nazariy masalalari bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish o'quvchi tomonidan olingan nazariy bilimlarni ijodiy qo'llash imkonini beradi;
- o Tanlangan mavzu bo'yicha har xil adabiyotlarni o'rganish asosida ishonchli taklif va xulosa beradi;
- o Yozma ko'rinishidagi ishlarni to'g'ri rasmiylashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish.

2-rasm




2-rasm. Referat tarkibini ko'rinish

1. Mavzuni tanlash



O'qituvchi tomonidan taklif etiladigan referat mavzulari misol tariqasida bo'ladi. Bunda o'quvchi o'zining qiziqishiga qarab referat mavzusini tanlasa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bundan tashqari tanlagan mavzusi bo'yicha o'quvchi fan o'qituvchisi bilan maslahatlashsa maqsadga muvofiq bo'ladi

2. Tayyorlov bosqichi: asosiy manbalarni o'rganish



Referat mavzusi tanlangandan so'ng referatga oid savollar bilan tanishish lozim:

1. Ma'ruza matnlariga qarab chiqish zarur;
2. Fan bo'yicha o'quv dasturida ushbu mavzunio'rganish uchun tavsiya etilgan adabiyotlar bilan qaytadan tanishib, ularni tahlil qilish ancha samarali ishni yuzaga keltiradi.
3. Eng asosiysi, referatga oid O'zbekiston Respublikasi qonuniy hujjatlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Zaruriy materiallarni konspektlash

4. Tadqiqot muammosi mantiqini yaratish, referatrejasini tuzish

Referat rejasi quyidagi rejalardan iborat bo'lishi mumkin:

Kirish;

Asosiy qism;

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

Ilova.


5. Yig'ilgan materialni tartiblashtirish va yozish

Kirish qismida mavzuning nazariy va amaliy dolzarbligi yoritiladi.

Asosiy qismda esa barcha muhim fikrlar keltirib o'tiladi.

Barcha referatda keltiriladigan jadvallar, diagrammalar, grafiklar, sxemalar, rasmlar nomlanishi va tartib raqami qo'yilishi kerakdir.


6. Adabiyotlar ro'yxatini rasmiylashtirishni tekshirish



Adabiyotlar ro'yxati ham bunda ma'lum tartibda bo'ladi.


Masalan, birinchi tartibda O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari kabi tartibda.

7. Matnni tahrir qilish. Matnni imlo va stilistika nuqtai nazaridan tekshirish



Referat ravon tilda va aniq yozilgan bo'lishi kerak. So'zlar qisqartirilishiga, faqat umumiy qabul qilinganlardan tashqari, shuningdek, xatoliklarga, tushunarsizliklarga, stilistik tafovutlarga yo'l qo'yilmasligi zarur.

8. Referatni rasmiylashtirish



Agar referat kompyuterda taqdim etiladigan bo'lsa, u 12-shrift, 1.5 interval oralig'ida A4 shakldagi qog'ozda qat'iy belgilangan tartib asosida taqdim etilishi kerak. Shuningdek referatda yana quyidagi qat'iy talablar mavjuddir:

- 1) Titul varag'i;
- 2) Har bir savol, tartib raqami ko'rsatilgan holda;
- 3) Kirish, raqam qo'yilmaydi;
- 4) Xulosa, raqam qo'yilmaydi;
- 5) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;
- 6) Jadval, diagramma, grafik, rasm va sxemalardan tashkil topgan ilovalardan iborat. Ilovalarda ham qat'iy tartib amal qiladi, ular ham ketma-ketlikda bo'lishi joiz.

Referatni baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Referatlashtirilgan matn yangiligi- maksimal ball 20

- Muammo va mavzu dolzarbligi;
- Muammoning qo'yilishi va mustaqilligi, muammo tahlili uchun tanlangan yangi jihatlar shakllantirilishi;
- Muallif mavqei mavjudligi, mulohaza yuritishdagi mustaqilligi.

Muammoning mohiyatini qay darajada ochib berilgani – maksimal ball 30

- Rejaning mavzuga mosligi;
- Muammoning to'liqligi va ochib berilishi doirasi;
- Materiallar bilan ishlash uslub va usullari asoslanganligi;
- Adabiyotdan qay darajada mahorat bilan foydalanganligi;
- Muammo yuzasidan har xil qarashlarni umumlashtirish, solishtirish bo'yicha ko'nikma, asosiy mulohaza va xulosalarni dalillash;

Manbalarni tanlashni asoslanganligi- maksimal ball 20

- Muammo bo'yicha foydalanilgan adabiyotlar doirasi va ulardan foydalanishni to'liqligi;
- Gazeta va jurnallardan unumli foydalana olish.

Rasmiylashtirish qoidalariga amal qilish- maksimal ball 15

- Foydalanilgan adabiyotlar ketma-ketligini to'g'ri joylashtirish;
- Ifoda to'g'riligi va madaniyati;
- Muammoni yechib berishda tushuncha va atamalardan qay darajada foydalanilganligi;
- Referat hajmiga qat'iy rioya qilish;
- Xat boshilarini ajratib ko'rsatish.

Ravonlik, savodlilik- maksimal ball 15

- orfografik va sintaktik xatoliklar bo'lmasligi;
- xatoliklar, qisqartirilgan so'zlar, umumiy qabul qilinganidan tashqari bo'lmasligi;¹

Biz iqtisodiy tahlil fanini o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib mustaqil ishlarni bir qator shakllarini mavzu o'tish davomida asoslashimiz mumkin. Iqtisodiy

¹ Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari. B. Xodiyev., L.Golish.o'quv qo'llanma.: Toshkent 2007 17-25-betlar.

yoʻnalishlardagi kasb – hunar kollejlarda keng qoʻllaniladigan mustaqil ishlarning shunday shakllaridan biri ilmiy maʼruzalardir. Maʼruzaga: 1) majlis ahli uchun moʻljallangan muayyan mavzudagi axborot, maʼruza;

2) oʻquvchi talabalarning mustaqil ish turi; 3) ilmiy ish turi sifatida qarash mumkin.

Oʻquvchilar maʼruzani mustaqil ish turi sifatida seminar darslariga tayyorlab kelishlari mumkin. Maʼruzani adabiyotlarni oʻrganib, tanlangan mavzuga chuqur yondashib, oʻz kuzatishlarini ham ishlata bilgan holda tayyorlashlari kerak.

Xulosa oʻrnida aytishim mumkinki, mustaqil taʼlim jarayonida topshiriqlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Nazariy dars mashgʻulotlarida muammoli topshiriqni oʻqituvchi hal qilgani maʼqul ekan, amaliy mashgʻulotda esa oddiyroq mustaqil topshiriqlarni ishlab chiqish har tomonlama taʼlim sifatini oshirishi koʻpgina tajribalardan aniqlangan. Agar taʼlim jarayonida anashu moslik taʼminlansa bu ancha maqsadga muvofiq boʻladi.

III BOB. “MEHNAT VA ISH HAQIDA SOLIQLAR VA BOSHQA USHLANMALAR HISOB” MAVZUSINI MUSTAQIL O‘RGANISH UCHUN TOPSHIRIQLAR ISHLAB CHIQRISH VA QO‘LLASH METODIKASI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH

3.1. “Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi” mavzusini o‘rganishda mustaqil ishlarni axborot texnologiyalari vositasida tayyorlashni takomillashtirish masalalari.

Ta’lim sifatida ta’minlashda o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari va interfaol usullari muhim o‘rin tutadi. Bugungi kunda pedagogik amaliyotda “Konferentsiya”, “Modulli dars”, “Zamonaviy o‘yin”, “Venn”, “Keysstadi”, “Baliq skeleti”, “Kalaster”, “Piramida” va boshqa usullardan keng foydalanilmoqda. Bu usullar qo‘llanilganda o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi, faolligi, o‘zlashtirish ancha ortadi¹.

Ayni vaqtda ta’lim sifatini oshirishning muammolari turlicha hal etiladi. Birinchidan, ta’lim jarayoni sifati hamda ta’lim jarayoni natijasi farqlanadi, bundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta’lim jarayoni sifati o‘z- o‘zidan ta’lim sifatini ta’minlashni kafolatlamaydi.

Respublikamizda ta’lim tizimini yuqori malakali raqobatbardosh pedagogik kadrlar bilan ta’minlash maqsadida bir necha yillardan buyon amalga oshirilayotgan harakatlar oqibatida ayni vaqtda sezilarli natijalarga erishildi. Ma’lumki, ta’limda shaxsiy natijalarga erishish, ta’lim oluvchilarning motivatsion resurslarini rivojlantirish shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini amalga oshirishni, har bir talaba uchun individual ta’lim dasturlarini tuzishni talab etadi. Ko‘pgina tajribalar ham psixologik ham pedagogik tomondan o‘rganilganda, shuni isbotladiki, ta’lim tizimini axborot – kommunikatsion texnologiyalar asosida amalga oshirish zarurligini, aynan o‘qitishni individuallashtirish, ta’lim oluvchilar qobiliyati, imkoniyatlari va qiziqishiga moslashtirish, ularning mustaqilligi va ijodkorligini

¹ A.R.Shermurotov “Ta’lim samaradorligini oshirishning zamonaviy usullari”. Kasb-hunar ta’limi. № 2. 2012 28-29 b.

rivojlantirish, o'quv axborotlarining yangi manbalariga erishish, jarayon va ob'yektlarni kompyuter vositasida modellashtirishdan foydalanishni ta'minlaydi. Shu o'rinda axborot – ta'lim muhitining ikki asosiy g'oyasini ta'kidlab o'tishni lozim deb topdim. Ya'ni bular quyidagilar: Birinchidan, turli ta'lim muhitining zarurligi, axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bilan izohlanadi. Ikkinchidan, ta'limni individuallashtirish ta'lim oluvchilarning bilishga ehtiyojlari va qiziqishlariga moslashtirishni talab etadi va bu muammolarni axborot kommunikatsion texnologiyalar vositasida samarali hal etish mumkin. Ta'limni axborot kommunikatsion texnologiyalar vositasida tashkil etish jarayoni ikki kategoriyaga ajratiladi, ya'ni sub'yektlar va ob'yektlar. Bunda sub'yekt sifatida ta'lim oluvchilar va o'qituvchilar nazarda tutilsa, ob'yekt sifatida esa, o'qitish vositalari, o'quv faoliyati instrumentlari, moddiy baza, texnik bazani misol keltirish mumkin.³ Ob'yektlar bu axborot va o'quv harakatlarini tashuvchilar bo'lsa, sub'yektlar mazkur ma'lumotlarni o'zlashtiradi va onggida qayta ishlab, o'quv faoliyati jarayonida o'zgartirib dunyoqarash, qadriyatlar tizimi va mazmuni, e'tiqod, kompetensiya va shaxsiy sifatlarga aylantiradi.

Bundan tashqari mustaqil ishlarga axborot texnologiyalarini olib kirish natijasida quyidagi vazifalar hal etilsa o'quv jarayoni yanada samaraliroq faoliyat yurita oladi- deb bema'lol aytishimiz mumkin.

1. Dastlab o'qituvchilarga axborot texnologiyalari imkoniyatlari haqida ma'lumot berish va ularni axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash;
2. O'quv fanlari bo'yicha yaratilgan dasturlarni o'rganish va tahlil qilish;
3. Axborot texnologiyasi kengroq qo'llaniladigan ta'lim yo'nalishini aniqlash;
4. O'quv-metodik majmualar yaratish, texnik va dasturiy vositalarni tanlash;

³ Xalq ta'limi jurnali. 2-2012yil, 58-bet.

5. O'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha me'yoriy hujjatlar majmuini ishlab chiqish;

6. Ta'lim muassasalarini kompyuter texnikasi bilan bosqichma-bosqich ta'minlash.

Axborot - kommunikatsion texnologiyalarga murojaat etish ta'lim muhitlari komponentlari tarkib va imkoniyatlari qatorini yanada kengaytiradi. Ushbu sharoitda o'quv axborotlari manbalari safi ma'lumotlar bazasi va axborot-ma'lumotli tizimlar, elektron darsliklar va ensiklopediyalar, internet resurslari bilan to'ldiriladi.

Shuningdek, mustaqil ta'lim jarayonida elektron ta'lim muhiti, ayniqsa, intellektual didaktik vositalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Intellektual didaktik vositalar deganda- ta'lim olish jarayonida talabalarning erkin ijodiy fikrlashlarini shakllantirish, ularning intellektual fikrlash darajalarini rivojlantirish maqsadida foydalaniladigan o'qitish vositalarining tabiiy va elektron tarzda yaratilgan vositalar tushuniladi. Elektron ta'lim jarayoni bu ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasida to'g'ri va teskari aloqalarning yuzaga kelish jarayoni sifatida qaraladi.

Avvalo, shuni e'tiborga olish lozimki, mustaqil ishlarni axborot texnologiyalari vositasida tayyorlash uchun dastavval, o'quv jarayoniga elektron muhitni shakllantirish va nazariy, amaliy bilim olish ko'nikma va malakasi asosida mustaqil ta'lim olishning ijtimoiy- pedagogik ahamiyati to'g'risida ma'lumot berish zarur. Shuni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakki, o'quvchilarning mustaqil ishlarni axborot texnologiyalari vositasida tayyorlashlari ularning psixologik omillariga ham bog'liq. Tayyorlanayotgan mustaqil ishning axborot texnologiyalari bilan bo'lsada, unda foydalaniladigan metodlarni eng samaralisini tanlash va maqsadga erishish uchun vositalardan unumli foydalanish. O'quvchilarda mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarining shakllanganlik darajalarini aniqlash mezonlarini hamda nazorat ishlarini tashkil etishning elektron variantlarini ishlab chiqish.

Yuqoridagi elektron ta'lim muhitini intellektual didaktik vositalar majmuasi asosida yaratish va amaliyotga joriy etish texnologiyalarini ishlab chiqishda quyidagi qoidalarga alohida e'tibor qaratilishi zarur:

- Elektron ta'lim muhitida intellektual didaktik vositalar majmuasi asosida mustaqil ish va topshiriqlarning pedagogik, metodik va texnik-texnologik vaziyatlar bilan uzviy bog'liqligi;
- Intellektual didaktik vositalar majmuasi asosida mustaqil ishlar va topshiriqlarning aqliy faoliyat (tahlil, sintez, taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish)ni taqozo etishi;
- Mustaqil ishlarni bajarishda elektron darslik va virtual versiyalardan foydalangan holda ta'lim berishning ko'rgazmaliligini oshirish;
- Axborot vositasida tayyorlash jarayonida topshiriqlarni oddiydan murakkablik tomon tamoyili asosida tuzish.

Mustaqil ishlarni axborot texnologiyalari vositasida tayyorlash natijasida og'irlik faqat o'quvchiga emas o'qituvchiga ham ko'p jihatdan bog'liq hisoblanadi. Endi, bu jarayonda o'qituvchi:

- O'quv kurslarining dizayneri;
- Fasilitator- metodlar bo'yicha maslahatchi;
- Tyutor- interfaol o'quv kurslarini taqdim etuvchi;
- Invigilator- ta'lim natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis bo'lib ishtirok etadi.

Buning natijasida o'quvchi tomonidan tayyorlanayotgan mustaqil ish har tomonlama sifatli bo'lib, agar o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yilsa, eng dolzarb muammolarni ham mustaqil ishlar bajarish orqali hal etish imkoniyati tug'iladi, bu o'z –o'zidan bozor iqtisodiyotini boshqarishda yana bir richag paydo bo'lganidan dalolat beradi. Bizga ma'lumki, mustaqil ishlarni tayyorlash jarayonida biz ko'proq Microsoft word dasturidan keng foydalanamiz, shuningdek power point ham birinchilar qatoriga kirib bormoqda. Biz bulardan tashqari yana mustaqil ishlarni sifatli tayyorlanishini ta'minlash maqsadida qolgan

dasturlarni ham ishga solishimiz lozim, masalan excel dasturi orqali tayyorlanayotgan ko'rsatkichli mustaqil ishlarni juda ajoyib qilib bajarishimiz mumkin.

Bu rejani yozishimdan mening xulosam shuki, o'quvchiga bir mavzu yuzasidan turli ko'rinishda, axborot texnikasidan foydalanib mustaqil ish topshirig'ini berish va oxirida albatta o'zining xulosasi va samaradorligini qayerda ko'ra olishi va tatbig'ini so'rash joiz.

3.2. "Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi" mavzusini mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar ishlab chiqish va qo'llashni takomillashtirish.

Dars o'tishda o'qitish metodlaridan foydalanish fanni o'rganishga qo'yilgan talablar fanning mazmuniga va o'ziga xos jihatlari alohida ahamiyat berishni taqazo etadi. Fanni o'rganishda materialini murakkabligi va miqdori ham muhim rol o'ynaydi. Demak, dars o'tishda, mavzuni yoritishda fanning o'ziga xos jihatlari hisobga olish lozim. Dars o'tishda o'rganilayotgan fanga uning xususiyatlariga, o'rganiladigan mavzularga bog'liq bo'lib, bu esa mavzuni yoritishda uni talabalar ongiga etkazib berishdagi asosiy jihatlar hisoblanadi. Shu jumladan biz avvalgi boblardan farqli ravishda bu bobda, moliyaviy hisob fanidan masala-mashqlar metodini qo'llashni ko'rib chiqamiz. Har bir fan jumladan iqtisodiy fanlar, mutaxassislik fani sifatida moliyaviy hisob fanini ham hisobga olganimizdagina samarali dars o'tish metodini tanlaymiz, shunga muvofiq ravishda o'quv, talabalarni darsga faol qatnashishini ta'minlashimiz mumkin. Har bir fanning boshqa fanlardan farqlanuvchi xususiyati eng avvalo, uning predmeti fanning oldiga qo'yilgan maqsadi, funktsiyalarda o'z aksini topadi. Shunga muvofiq biz mavzu bo'yicha talabalar faoligini oshirish maqsadida quyidagi topshiriqlarni ishlab chiqdik.

1 guruh uchun topshiriq.

Misol. Tikuvchi bir oyda 120 dona ish xalatini tik-di. Bitta xalat narxi -425 sum. Mehnatga haq, to'lashning to'g'ridan-to'g'ri ishbay shaklida tikuvchining oylik ish xqi 51 000 so'mni (120×425) tashkil qiladi.

1 guruh uchun topshiriq javobi.

Mehnatga haq to'lashning ishbay-mukofotli shakli mehnatga ishbay haq to'lashning ko'prok. tarkalgan tizimi bo'lib, unda to'g'ridan-to'g'ri ishbay narxlar bo'yicha ish xaqidan tashqari, belgilangan kursatkichlarni (ishning sifati, shoshilinchlik, mijozlar tomonidan asosli shikoyatlarning yukdigi va boshk) bajarganlik yoki ortigi bilan bajarganlik uchun

3 guruh uchun topshiriq

Misol. Asosiy ishlab chiqarish xodimi oyiga 300 birlik mahsulot tayyorladi. Mahsulot birligi uchun ishbay narx 250 birlikkacha —525 so'mni, 250 dan

3 guruh topshiriq javobi

Bunda ish xaqini qisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

belgilangan me'yor doirasida tayyorlangan mahsulot uchun ish xaqi miqdori anikdanadi: $250 \text{ birlik} \times 525 \text{ sum} = 73750 \text{ sum};$

belgilangan me'yordan ortiq, tayyorlangan mahsulot uchun ish xaqi miqdori anikdanadi: $50 \text{ birlik} \times 570 \text{ sum} = 28500 \text{ sum};$

Misol. 2005 yilning IV choragi uchun ishlab chiqarish hajmining baza darajasi 3600 ming so‘m, 2005 yilning IV chorak uchun haqiqatda bajarilgan ishlab chiqarish hajmi 3694 ming so‘m. Ishlab chiqarish o‘shish sur‘atini qayta hisoblash koeffitsienti 0,7. Ish haqi fondining baza darajasi 1260 ming so‘m. Ish haqining haqiqatda hisoblangan summasi 1275 ming so‘m. Ish haqidan foydalanish natijasini aniqlang.

- Echimi: 1. $\text{Ishlab chiqarish hajmining o'sishi} = (3694 \text{ m.s} : 3600 \text{ m.s} \times 100\%) = 2,6\%$
2. $\text{Koeffitsientini hisobga olgan holda ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati} = (2,6\% \times 0,7) + 100\% = 101,8\%$
3. $\text{Ishlab chiqarish hajmining o'sishi darajasida berilishi mumkin bo'lgan ish haqi} = 1269 \text{ m.s} \times 101,8\% : 100\% = 1282,7 \text{ ming so'm}$
4. $\text{Ish haqidan foydalanish natijasi} = 1282,7 \text{ m.s} - 1275 \text{ m.s} = 7,7 \text{ ming so'm}$

Demak, ish haqi fondidan tejalgan.

Joriy yilning avvalgi kvartalida xo‘jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan erishilgan nisbiy tejam shu yil kelgusi choraklarida ish haqi to‘lash uchun foydalaniladi. Bu tejam summasi ish haqi fondining baza darajasiga qo‘shib qo‘yiladi. Ish haqi uchun mablag‘larning ortiqcha summasiga bank tomonidan mablag‘lar berilmaydi.

Avvalgi boblardan farqli ravishda bu bobda mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar ishlab chiqish va metodini qo‘llash kamchilik va muammolari haqida ularni bartaraf qilish uchun takomillashtirish masalarini ko‘rib chiqdik. Shunga muvofiq mavzuni o‘rganishda talabalr faolligini oshirish maqsadida mustaqil topshiriqlar tayyorlashda metodning o‘ziga xos avzallik tomonlari va kamchilik muammolari mavjud. Mustaqil ishni tashkil etishda ayrim kamchiliklarni kuzatish mumkin:

- Mustaqil ishni tashkil etishda talaba o‘zi tashkil eta olmasligi;
- Mustaqil ishni bajarish uchun talaba o‘zini-o‘zi majbur qila olmasligi;
- Mustaqil ishni tashkil qilishning asosiy printsipli uni muntazamlashtira olmasligi;
- Mustaqil ishlarni bajarish muddati jihatidan hoxlagancha davom etirilishi;
- Mustaqil ishni tashkil qilishda ish tartibini belgilay olmasligini.

Darsni tashkil etishda ushbu hususiyatlarni hisobga olish dars samaradorligini oshirishga yordam beradi

O'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etishning ikki bosh yo'nalishi mavjud- ta'lim mazmunini va ta'lim iqtisodiyotini tubdan yangilash. Uning asosiy vazifalari – ta'limning ochiqlik darajasi, sifati va samaradorligini oshirish, agar biz ana shu muammolarni bartaraf etmasak, mustaqil ishlarni samarali tashkil eta olmaymiz, natijada so'ralayotgan kadrlar ham muammo bo'lib qoladi. Ma'lumki, o'quv jarayonida mustaqil ishlarni tashkil etish avvalo o'quvchilarga nisbatan erkin fikrni bayon etishlari muammoli vaziyat ustida bosh qotirib qaror qabul qila olishlari uchun tashkil etiladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishning va talabalar faolligi oshirish muhim hususiyatlardan biridir. Bu inson faoliyatining muayyan sohasiga qiziqishlar bo'lib, ular keyinchalik mazkur faoliyat turi bilan kasbiy darajada shug'ullanishga bo'lgan intilishga aylanadi. Ixtisoslashtirilgan mustaqil ishlar natijasida aynan ana shunday o'quvchilarning qobiliyatlari yuzaga chiqariladi. Umuman olib qaraydigan bo'lsak, mustaqil ishlarni samarali tashkil etishimiz natijasida dars jarayoniga nisbatan har bir o'quvchi alohida e'tibor bilan qaraydi, bu esa ta'limni sifatini oshirib beradi.


Mustaqil ishlarni samaradorligini oshirishning yana bir muhim sohasi borki, bu soha ta'lim jarayonini boshqarishni yanada takomillashtirish imkonini beradi. Bu masala har bir yangi o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlarning undan avval o'zlashtirilgan bilimlar darajasiga bog'liqligidir.

Ko'pincha, mustaqil ishni o'quv jarayonida qo'llash, o'qituvchini xuddi shu savol yechimini tayyorlab berganiga nisbatan baxtga qarshi ancha ko'p vaqtni talab etadi. Bundan tashqari mustaqil ishning bajarilish samaradorligi o'quvchining bilim olganlik darajasiga va saviyasiga ayniqsa, ularning bilim olish mahoratining shakllanganligiga bog'liqdir.

Ayniqsa, bu borada elektron o'quv adabiyotlarining o'zni benihoya katta bo'lib, multimedia vositalari asosida yaratilgan mazkur vosita orqali o'quvchilar elektron ma'ruza matnlari, elektron o'quv qo'llanmalari va elektron uslubiy ko'rsatmalar,

lugʻatlar, ensiklopediyalar yordamida hech qanday qiyinchiliklarsiz kerakli bilimlarni istalgan joyda va istalgan sharoitda mustaqil egallay oladilar. Bunda vaqt muammosi ham bir qadar hal etiladi.

Bundan tashqari mening fikrimcha, oʻquvchilarning mustaqil ishlashi va taʼlim olishi samaradorligi faqat taʼlim muassasasidagi mashgʻulotlarni tashkil etish darajasiga, mavjud shart – sharoitlarga gina emas, balki oʻquvchilarning oʻz ixtisosligiga boʻlgan munosabati, ularning gʻoyaviy – siyosiy yetukligi, hayotiy tajribalari, koʻnikma va malakalari, boʻsh vaqtini qanday tashkil etishlariga ham bogʻliq. Buni quyidagi chizma orqali aniqlashtiramiz:



Bu rejadan umumiy xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, dars jarayonini samarali tashkil etish uchun mustaqil ish topshiriqlarini bir butun ishlab chiqib faoliyatga tatbiq etish lozim. Shu narsa aniqki, oʻquvchilar oʻz bilimlarini mustaqil oshira boorish koʻnikmalari har bir davrda ham oʻquv jarayonining dolzarb masalalaridan hisoblangan.

Xulosa

Ma'lumki har bir davr ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sharoit sharoitlardan kelib chiqqan holda ta'lim mazmuni va uni qo'yiladigan talablar tubdan o'zgarib boradi, o'z navbatida kadrlar tayyorlash milliy dasturini joriy etilishi ta'limida engi pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi.

Shuni alohida qayd etib o'tish joizki, respublikamiz ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar va kadrlar tayyorlash milliy dasturi bozor iqtisodiyoti-ning asoslarini shakllantirish navbatida "Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi" mavzusini o'qitishda yoshlarga o'rgatish uchun o'qituvchining o'zi bu fanlarni o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiyalar va boshqa fanlarni ham chuqur bilish zarur bo'ladi.

Hozirgi pytda o'quv materiallari, axborotlarni ekranda ko'rsatish imkoni vujudga kelishi va rivojlanishi natijasida o'quv jarayoniga erishilgan yutuqdan foydalanish keng yoyilib bormoqda.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga tadbiq etilishi iqtisodiy samara berish bilan birga ta'limda yangicha o'quv metodlarini keng ravishda qo'llashga imkon yaratadi.

Bitiruv malakaviy ishining mavzusini yoritishda mavzuga doir o'quv, ilmiy adabiyotlar, xujjatlar bilan tanishib chiqdim. Bitiruv malakaviy ishimning masalasini yoritishda esa, mustaqil ta'limni tashkil etishdagi muammo va kamchiliklarni inobatga olib qo'shimcha ravishda talabalarning individual xususitlari, bilimlarini sinash usullari tavsiya qilinadi.

Shuningdek, Bitiruv malakaviy ishida bitiruv oldi pedagogik amaliyotda olgan tajribalariga va nazariy bilimlarga asoslanib, uchragan kamchiliklar echimlarini topishga harakat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishida kasb-hunar kollejlarida "Mehnat va ish haqida soliqlar boshqa ushlanmalar hisobi" mavzusini o'qitishning samarali shakli sifatida mustaqil ta'limni ko'rib chiqib, dars o'tishni, takomillashtirishning metodikasini ishlab chiqishga harakat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishning yakunida xulosa qilib, quyidagi takliflarni berib o‘tamiz:

1. Mustaqil ta’lim ma’lum maqsadga yo’naltirilgan xarakterda bo’lishi lozim.
2. Taklif etilgan har bir mustaqil ta’lim topshirig‘i talab doirasida bo’lishi, ya’ni talabalarning nazariy va amaliy tayyorgarligini e’tiborga olib tuzilishi lozim.
3. Dastlab talabalarda mustaqil ta’limning eng oddiy ko‘nikmalarini shakllantirish darkor.
4. Mustaqil ta’lim topshiriqlari iloji boricha nostandart bo’lib, tayyor andoza va modellarga aynan mos bo’lmasligi lozim.
5. Mustaqil ta’limni tashkil qilganda turli o‘quvchilarda bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallashga turlicha vaqt ketishini hisobga olgan holda o‘quvchilarga differentsial yondashish zarur.
6. Berilgan topshiriqlar talabalarda qiziqish uyg‘otish uchun ularning amaliy ahamiyati olib berilishi kerak.
7. Mustaqil ta’lim o‘quv raislariga asosan tuzilgan ravishda, izchil tashkil etilishi kerak.
8. Mustaqil ta’limni tashkil etishda o‘qituvchi ma’ruzasi bilan talabaning mustaqil ta’lim topshiriqlari uzviy bog‘langan bo’lishi darkor.
9. Har qanday turdagi mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda boshqaruvchi rol o‘qituvchiga tegishli bo’lishi lozim.

Bitiruv malakaviy ishini yoritishda turli jadval, chizma, slaydlar tayyorlandi.

Kelajakda bitiruv malakaviy ishimda ko‘rib chiqilgan masalalar, ular yuzasidan taklif etilgan ko‘rsatmalar “Mehnat va ish haqida soliqlar va boshqa ushlanmalar hisobi” mavzusida dars berish jarayonida foydalanilsa, talabalarning rialligiga xususan jarayonidagi faolligiga erishishda yordam beradi deb o‘ylayman.

Xulosa qilib aytganda O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida belgilanganidek, butun ta’lim tizimini tubdan isloh qilish jaryoni ketmoqda ekan, ushbu bosqichda mustaqil ta’limning ahamiyatini oshirish, albatta o‘zining samrali natijalarini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 1996 y 30 avgust.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri) 2000 y 26 may.
3. “Axborotlashtirish to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 2003y 11 dekabr.
4. Buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) N 1-24. 2005-2009.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyundagi “Tadbirkorlik subektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida”gi PK-100-sonli Qarori;
6. O‘z.R. Prezidentining “Tadbirkorlik subektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. 2005 yil 6 oktabr.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi “Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 54-sonli qarori (2003 yil 25 dekabrda 567-sonli qaror asosidagi o‘zgartirishlar bilan).
8. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.-T: O‘zbekiston, 2010.
9. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.-T: 2011.
10. Sotvoldiyev A.S, Buxgalteriya hisobi nazariyasi. T: IQTISOD-MOLIYA. 2007
11. Ochilov I.K, Qurbonboev J.E. “Moliyaviy hisob”. TMI, 2007

12. Tojiboeva D, Mahsus fanlarni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –T: Fan va texnologiya. 2007
13. Pardaev A.H, Pardaev B.H, Boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. –T: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2008.
14. Ibragimov A, Ochilov I, Qo'ziyev I, Rizayev N. “Moliyaviy va boshqaruv hisobi”. T: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2008.
15. Hamdamov B va boshq. “Moliyaviy hisobot”, Toshkent, “Iqtisod-moliya”, 2008.
16. “Moliyaviy hisob”. KARANA korporatsiyasi-2005-2008.
17. Gadoyev E va boshq, Yillik hisobot-2008. Toshkent: NORMA, 2009.
18. G'ulomova F.G'. “Buxgalteriya hisobini mustaqil o'rganish uchun o'quv qo'llanma”. Toshkent: NORMA, 2009 yil
19. G'ulomova F.G' “Zamonaviy buxgalteriya hisobi” Toshkent: 2011.
20. Ortiqov X, Yugay L, Tuxsanov X, Xo'jabekov N, O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartiga sharxlar to'plami. Toshkent “NORMA” 2010.

21. Internet saytlari:

www.lex.uz

www.norma.uz

www.tfi.uz

www.ziyonet.uz

www.bukh.ru

www.bem.uz